

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK:**

MAGISTRATURA BO'LIMI

Maktabgacha ta'lim kafedrası

CH O R I Y E V A M E H R I B O N ning

**5A 111801- Ta'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgachata'lim) yo'nalishi bo'yicha magistr darajasini olish uchun**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI
TARBIYALASHGA AKMEOLOGIK YONDASHUV**

mavzusida yozgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

DAKda himoya qilishga ruxsat berilgan

Magistratura bo'limi boshlig'i:

dots. O'.Toshev

“-----”-----2019 yil

Maktabgacha ta'lim

kafedrası mudiri:

dots.N.Oripova

Ilmiy rahbar:

dots. D.Kenjayeva

Qarshi - 2019

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning nazariy asoslari.....	8
1.1. “Shaxs”, “akmeshaxs”, “shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv” tushunchalariga pedagogik tavsif.....	8
1.2. Akmeologiyaga falsafiy, psixofiziologik va metodologik yondashuvlar tahlili.....	18
II BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning amaliy asoslari	27
2.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirishning mazmuni va muhim tamoyillari.....	27
2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirish texnologiyasi.....	43
III BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirishning samaradorligi.....	57
3.1. Tajriba - sinov ishlarining tashkil etilishi	57
3.2. Tajriba - sinov ishlari samaradorligi.....	61
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	54
Ilovalar.....	1- 6

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida eng birinchi dolzarb vazifa maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘lmog‘i lozim deya ta‘kidlab o‘tdilar.

Mamlakatimizda hur fikrli, mutelik va jur‘atsizlikdan holi bo‘lgan, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, mustaqil va erkin shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Respublikamizda maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Mamlakatimizning ulkan umidi bo‘lgan yosh avlodni kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z Vatani va xalqini, oilasini sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, demokratik qadriyatlarni har bir akmeshaxs ongiga singdirish bizning asl maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

O‘rib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy o‘zagi hisoblangan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” da maktabgacha ta‘lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlar mazmuni belgilab berilgan. Bu ta‘lim turiga har tomonlama ehtiyotkorlik, e‘tiborlilik va mehribonlik bilan qarash alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni barkamol qilib voyaga yetkazishda, bir so‘z bilan aytganda akmeshaxslar darajasigacha yetkazishda insonparvarlik chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo‘lishlariga asosiy e‘tiborimizni qaratmog‘imiz lozim. Bunda ma‘naviyatdan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalqsevarlikka o‘rgatish kerak bo‘ladi.

Axloq – ma‘naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik deganidir. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya – bu millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne‘matlarni shaxs tomonidan

o‘zlashtirilib, undan foydalangan holda o‘z axloqini barkamollashtirishga erisha olishlik darajasini ko‘rsatuvchi mezondir. Zero, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida, ta‘lim jarayonini zamonaviylashtirish, insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda ijtimoiy-axloqiy muhitning yetakchi o‘rin egallashi va yangi jamiyat kishisi – “Akmeshaxs”ni shakllantirishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Milliy dastur asosida amaliyotda o‘z ifodasini topayotgan barkamol avlod yuksak darajada talabga javob beruvchi tarbiyaviy ishlarning yangi metod va vositalarining yoshlar hayotiga keng kirib borishi, akmeshaxs qobiliyati, iste’dodi, izlanishi va yangilikka intilishi ruhida yashash imkoniyatini yaratmoqda.

“**Akmeshaxs**”ni shakllantirish Akmeologiya fanining tadqiqot ob’yekti hisoblanadi.

Akmeologiya [yunonchadan akme – nimanidir oliy darajasi + logiya, cho‘qqi haqidagi fan] – alohida odamni va odamlar birligini rivojlanish cho‘qqisini va unga erishish sharoitlarini o‘rganadigan fanlar to‘plami.

Olimlarning fikricha “Akmeshaxs”ni shakllantirish bu ilmiy tartib va ilmiy o‘zlashtirishdir. Ulardagi mavjud usullar quyidagilar:

- yoshlar o‘zlarining ijod qobiliyatini qonuniy meyor orqali boshqara olish va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho‘qqiga ko‘tarish;

- shaxs estetikasi va intellektining yuqori bosqichga yyetishdagi obyektiv va subyektiv birliklardagi ziddiyatli ta’sir omillari;

- o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va boshqarish.

Umumlashtirib aytganda shaxs intellektida akmeologiya juda muhim o‘rin egallaydi. U qonuniy meyorlar asosida o‘z - o‘zini yo‘lga solish va qayta tiklash, tashqaridan yangi kasbidan va jamiyatdagi ilmiy yutuqlaridan, madaniyatdan, texnikadan va ichki ruhiyatini ham o‘zining qiziqishi, ehtiyoji va o‘zining qobiliyatini anglash o‘z yutuqlarini, kamchiligini o‘z faoliyatida ko‘ra olishdir.

Hozirgi davrda akmeologiya ob’yekti sifatida yetuk inson aqliy xarakteristikasi, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, odam mahorati qabul qilingan. Akmeologiyaning asoschilaridan – Boris Gerasimovich Anan’yev mazkur fanning asosiy g‘oyasini shaxs oliy yutuqlari hayotining “cho‘qqisi”ni

o'rganishni shakllantirdi. U odam haqidagi bilim muammosini rivojlantirgan holda, shaxs rivojlanishi jarayonini xarakterlovchi qonuniyatlar, mexanizmlar va fenomenlarni o'rganish yuzasidan bir qancha kompleks vazifani ilgari surdi. Akmeologiya katta odamlarning barcha yosh davrlarida ijodiy yetuk mutaxassis bulib shakllanishi va o'z kasbiy akmesiga erishish yo'llarini o'rganishda insoniy qadriyatlarga tayanadi. Akmeologiya ijodiy yetuklik qonuniyatlari va odam akmesiga erishishi haqidagi fan sifatida psixologiya va uning asosiy yunalishlari bilan o'zaro bog'langan. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizomning III-bob 14-bandida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik hissini shakllantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Ya'ni, bolalarga ilk yoshdan boshlab uyda, mehmonda, bolalar bog'chasida o'zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, yechinib-kiyinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo'lish, boshqalar mehnatini qadrlash, Vatanni ardoqlash, rostgo'y bo'lish, go'zallikni sevish va go'zallik yaratishga intilish kabi odatlarga o'rgatish – ularda akmeshaxs fazilatlarini tarbiyalashning asosini tashkil qiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv samarali kechadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy , Abu Ali ibn Sino , Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida shaxs ega bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar majmui, ularning mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan.

M.Imomnazarov, F.Ismoilov, V.Karimova, T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuxamedov, A.Erkaev, E.Yusupov, S.Qodirov, E.G'oziev va boshqalar tomonidan shaxs kamoloti negizida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, ularning milliy-etnik, ijtimoiy-psixologik jihatlari, “shaxs” tushunchasining falsafiy, tarixiy va psixologik talqini o'z ifodasini topgan. Shuningdek, С.Г.Ананьев, Е.Н.Богданов, В.Г.Зазыкин, А.А.Деркач L.G.Borisova, A.N.Leontev , R.S.Nemov, I.P.Podlasiy hamda V.A.Slasteninlar tomonidan shaxs

tushunchasining mohiyati har tomonlama rivojlangan akmeshaxs talqini asosida tahlil etilgan.

V.I.Andriyanova, Q.Yo'ldoshev, Sh.N.Majitova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Ochilov, T.G'afforova, S.Ochil, M.Quronov va boshqalarning ishlarida barkamol shaxs tarbiyasi, uni samarali tashkil etish, shaxs shakllanishida oila, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik o'рни va roli, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

Biroq, muammoni nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish ta'lim muassasalari hususan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik nuqtai nazardan yondashilmaganligini, bu jarayonning mazmuni va muhim tamoyillari zamon talablari darajasida asoslanmaganligini ko'rsatdi. Shuning uchun biz tadqiqot mavzusini **“Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv”** deb belgiladik.

Tadqiqotning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv muammosining ilmiy-nazariy va texnologik asoslari hamda ularni amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning mazmuni, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning ob'ekti: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv jarayoni.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Muammoga oid ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik manbalarni o'rganish.

2. “Saxs”, “akmeshaxs”, “shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv” tushunchalariga doir fikrlarni nazariy asoslash.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga doir pedagogik texnologiyalarni tanlash.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni qo'llashning samaradorligiga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish; pedagogik kuzatish; , modellashtirish, kontent-tahlil,

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv ilmiy-pedagogik muammo sifatida o'rganildi.

2. “Saxs”, “akmeshaxs”, “shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv” tushunchalariga doir psixologik, falsafiy, pedagogik adabiyotlar o'rganilib, tahlil qilindi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv muammosining nazariy va texnologik asoslari ishlab chiqildi.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv samaradorligiga oid ilmiy-metodik tavsiyalar berildi.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati: Tadqiqotning mohiyatini yorituvchi “shaxs”, “akmeshaxs”, “shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv” kabi muhim tushunchalarga pedagogik ta'riflar berilib, ular mohiyatining yoritilganligi; maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning nazariy va texnologik asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga oid ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning natijalaridan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash amaliyotini yangilash, o'quv-metodik majmualar tayyorlash, shuningdek metodik tavsiyalardan tarbiyachilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida ma'ruzalar sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi: Tadqiqot kirish, ikki bob, boblar yuzasidan xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 73 betni tashkil etadi.

I BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning nazariy asoslari

1.1. “Saxs”, “akmeshaxs”, “shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv” tushunchalariga pedagogik tavsif

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub‘ekti va ob‘ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchi, deb ko‘rsatib o‘tiladi [7]. Demak, davlat tomonidan uning ta‘lim xizmatlari iste‘molchisi sifatida bilim olishi va kasb-hunarga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit yaratiladi. O‘z navbatida shaxs ta‘lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida kasbiy malakaga ega bo‘lgach, ta‘lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat olib borib, bilimi va tajribasini namoyon etadi. Bu esa ta‘lim jarayonida aqlan rivojlangan, ma‘naviy-axloqiy shakllangan, jismoniy yetuk, muayyan kasb-hunar asoslarini puxta egallagan, har tomonlama rivojlangan akmeshaxsni shakllantirishga jiddiy talablar qo‘yadi.

Shaxs qator ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlarining o‘rganish ob‘ektidir. Falsafa shaxsni uning ijtimoiy ahvoli, faoliyati, bilish, ijod sub‘ekti sifatida qarab chiqadi. Psixologiya shaxsni psixik holatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik munosabatlar, shaxsning temperamenti, fe‘l-atvori, qobiliyati, irodaviy fazilatlari va hokazolarning uyg‘unligi asosida o‘rganadi.

Sotsial yondashuv esa shaxsning ijtimoiy o‘ziga xosligini belgilab beradi. Faylasuflarning fikrlariga ko‘ra shaxs keng ma‘noda – inson individ, kishi; tor ma‘noda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiluvchi muayyan jamiyat a‘zosi. “Inson” tushunchasi barcha kishilarga xos bo‘lgan sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi va hayot, faoliyat usuli bilan farqlanadigan odam, inson sifatida sub‘ektlarning tarixiy birligini ifodalaydi. Inson tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlari va barcha zamonlarda o‘ziga xos

mavjudot sifatida muayyan antologik maqomni saqlab keladi. Insonning o'ziga xosligini ifodalaydigan xislatlar va fazilatlar uning individualligini belgilaydi. Individ esa insoniyat vakili bo'lib, ijtimoiy va psixologik belgilar (jumladan, aql-idrok, iroda, ehtiyojlar, qiziqish, mayllar va hokazolar)ni o'zida ifodalaydi. "Individ" tushunchasi "alohida inson" sifatida tushuniladi. Masala bunday qo'yilganda turli biologik omillar (yosh xususiyatlari, jinsi, temperamenti)ga muvofiq inson hayoti va faoliyatining ijtimoiy xususiyatlari belgilanadi. Insonning individual, shuningdek, tarixiy rivojlanishining turli bosqichlaridagi xususiyatlarini aks ettirish uchun "individ" tushunchasi bilan birga "shaxs" tushunchasi ham qo'llaniladi. Bu o'rinda "individ" shaxs sifatida shakllanishga yo'naltirilgan inson sifatida qaraladi. Shaxs – individ rivojlanishining yakuni, barcha insoniy fazilatlarning to'la namoyon bo'lishidir.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir nuqtai nazaridan tarbiya doimo maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda, aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi. Tarbiya insonni muayyan ijtimoiy zaruriy bilimlar majmui, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uni hayotga va mehnatga, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlariga rioya qilishga, kishilar bilan muomala qilishga, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur holatlarning barchasi, tabiiy ravishda shaxsning individual belgi va fazilatlarini shakllantirishni istisno etmaydi. Tarbiya ijtimoiy muhitning insonga ta'sirining tarkibiy qismi sifatida ham baholanadi. Tarbiya – inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi muhim omil bo'lsa-da, biroq bu jarayonda yana qator omillar, jumladan, muhit ta'siri va irsiyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson, ijtimoiy mavjudot sifatida turli ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro harakatda bo'ladi, jamiyat hayotida birga ishtirok etadi.

Biroq, amalda shaxs hech qachon muayyan guruhga to'la dahldor bo'lib qolmaydi. Ayni paytda ko'plab ijtimoiy guruhlarning ishtirokchisi sifatida ularning har birida guruhlarning boshqa a'zolari bilan o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi.

Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi tarbiyaning asosiy mohiyati bo'lib qoladi, - deydi psixolog olim A.V.Petrovskiy. Bunday munosabat sub'ektning temperamenti, aqliy darajasi, qobiliyati, qiziqishlari va boshqalarda o'ziga xoslikni nazarda tutadi. Bu borada shaxsni ijtimoiylashtirish bilan bir qatorda uning o'ziga xosligini saqlab qolish kerakligini alohida ta'kidlaydi. Chunki har qanday tarbiyani majburlovsiz, erkin holda shaxsning his-tuyg'ulariga tayanib amalga oshirish hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ishbilarmon kishilarnigina emas, balki vijdonli, insofli, oliy himmat insonlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

B.T.Lixachev esa shaxs tarbiyasida uning ongli ravishda bilim olishga intilishi, bu borada o'ziga xos ko'nikma, malaka va mahoratga ega bo'lishi, mehnatga, kasb-hunar egallashga ijodkor mutaxassis sifatida yondasha olishiga erishish, fuqarolik mas'uliyatini tarkib toptirish, va nihoyat, unga zararli odatlarning ta'sir etishiga yo'l qo'ymaslik kabi muammolarni ilgari suradi. Ye.V.Bondarevskaya, A.V.Kirivchuk, L.Yu.Gordinlar esa shaxsni shakllantirishda bir xillikka yo'l qo'ymasdan unga individual yondashish, shaxsni faqat sotsiumda rivojlanishi mumkin, degan g'oyani qayta ko'rib chiqish taklifini ilgari suradi. R.G.Gurova shaxs tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, shaxsni har tomonlama rivojlantirishda mehnat tarbiyasi, fuqarolik, vatanparvarlik, axloq masalalarida an'anaviy ta'riflardan chetlanib, ularni inson hayotini o'zgartiruvchi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantiruvchi vosita sifatida e'tirof etishni taklif qiladi. T.G.Minchuk esa pedagogik g'oyalarning mazmun-mohiyati o'zgarayotgan sharoitda yoshlar tomonidan shaxs mohiyatining anglashiga erishish, ularning dunyoqarashlari, o'z nuqtai nazarlarini ifodalash huquqlarini hurmat qilishga o'rgatish, o'z shaxsini yuqori baholay olish, shaxsiy qobiliyat, bilim va ko'nikmalarini to'la namoyon etish asosida o'z "Men"ini qaror toptirish zarur deb hisoblaydi. Zero, o'z-o'zini anglash, o'z shaxsini hurmat qilish insonni jamiyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishga undaydi, degan xulosaga keladi.

Faylasuf olim S.Shermuhamedov insonni jamiyatning mavhum a'zosi sifatidagi yondashuvga, "totalitar tuzum mexanizmidagi vint" sifatidagi

qarashlarga zid ravishda insonni tarix, madaniyat va o'z hayotining ob'ekti sifatida shakllantirish va rivojlantirish uchun imkon yaratish zarurligini ta'kidlar ekan, insonga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarganiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, muallif O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Har bir fuqaroning shaxs sifatida tiklanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berishdan iborat" degan fikriga tayangan holda "insonga nisbatan bir zarracha sifatida emas, balki dunyoni o'zgartiruvchi qudratli kuch" sifatida qarash g'oyasini ilgari suradi .

Inson shaxs darajasiga yetishi uchun uning ongi, faoliyati, o'z-o'zini anglashidan iborat ichki yo'naltiruvchi mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Ana shu xususiyatlar rivojlanib, insonning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ma'lum bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Moskva: Rus tili nashriyoti, 1-tom, 1981. 82-bet)da "barkamol" tushunchasi lug'aviy jihatdan "kamolga yetgan", "bekamu ko'st", "yetuk", "to'kis", "mukammal" degan ma'nolarni anglatishi ta'kidlanadi [27;25].

Garchi bugungi kunda ham mamlakatimizda tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratligi e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, biroq akmeologiyaning tadqiqot ob'yekti bo'lgan "akmeshaxs" yani "yetuk shaxs"ni tarbiyalash masalasi butundunyoni o'ylantirayotgan global masalalar qatoridan joy oldi.

Hozirgi davrda akmeologiya ob'yekti sifatida yetuk inson aqliy xarakteristikasi, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, odam mahorati qabul qilingan. Akmeologiyaning fan doirasi tekshiruvlarini markaziy ko'rsatgichi bo'lib mahsuldorlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi ko'rsatiladi, shuningdek samarador faoliyat akmeologiya fanining tushuncha apparatini tashkil qiladi. Akmeologiyada tadqiqot ob'yekti yetuk shaxsdir. Akmeologiya fani yetuk inson rivojlanishida ob'yektiv va sub'yektiv omillarni,

shaxsiy xayoti jarayonida yuksaklikka erishishini o'rganadi. Akmeologiya katta odamlarning barcha yosh davrlarida ijodiy yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi va o'z kasbiy akmesiga erishish yo'llarini o'rganishda insoniy qadriyatlarga tayanadi. Akmeologiya ijodiy yetuklik qonuniyatlari va odam akmesiga erishishi haqidagi fan sifatida psixologiya va uning asosiy yo'nalishlari bilan o'zaro bog'langan.

Shu o'rinda yoshlarni akmeshaxs sifatida tarbiyalashning asosiy o'zagi hisoblangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"da uzluksiz davom etadigan ta'lim-tarbiya jarayonini belgilovchi ta'limning birinchi bo'g'ini nihoyatda muhim. Bu ta'lim turiga har tomonlama ehtiyotkorlik, e'tiborlilik va mehribonlik bilan qarash alohida ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda, bir so'z bilan aytganda akmeshaxslar darajasigacha yetkazishda insonparvarlik chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo'lishlariga asosiy e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim. Bunda ma'naviyatdan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladagina iborat emas. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik deganidir. Haqiqatdan ham, ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne'matlarni shaxs tomonidan o'zlashtirilib, undan foydalangan holda o'z axloqini barkamollashtirishga erisha olishlik darajasini ko'rsatuvchi mezondir.

Mustaqil vatanimizning ulkan umidi bo'lgan yosh avlodni kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o'z Vatani va xalqini, oilasini sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, demokratik qadriyatlarni har bir akmeshaxs ongiga singdirish bizning asl maqsadlarimizdan biri hisoblanishi lozim. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda innovatsion muhitni yaratish, boshqacha aytganda maktabgacha ta'limda integratsiyaga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish orqali bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga erishiladi.

Rus olimi I.P.Podlasiy shaxs tarbiyasi va uni shakllantirish haqida so'z yuritarkan, avvalo shaxsni aqliy, axloqiy, emotsional estetik, va jismoniy rivojlantirish,

uning ijodiy qobiliyatini har tomonlama namoyon etishi uchun imkoniyat yaratish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni pedagogikaning asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Muallifning qayd etishicha, shundagina shaxs ongli ravishda fuqarolik nuqtai nazariga ega bo'ladi, hayotga va mehnat qilishga, ijodiy faoliyat yuritishga, o'z-o'zini boshqarishga va vatani uchun xizmat qilishga, uning rivojlanishi uchun kurashishga tayyor turadi.

I.P.Podlasiyning fikricha, "akmeshaxs – tarbiyaning oliy maqsadi, unga intilib yashaydigan ideal. Bu ideal tarbiyaning buyukligi va insonning tabiatan nomukammalligini anglash hamda tarbiyaning buyukligiga ishonch asosida paydo bo'lgan. Jamiyatning maqsadi barcha insonlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat"[27;26].

Bizning fikrimizcha, akmeshaxs – bu aqlan va ruhan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy boy, axloqan pok, jismonan sog'lom, nafosatli, jamiyatda o'zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxs [27;20].

Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin.

Sh.Majitova bir butun, yaxlit shaxsni rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekan, shaxsning ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatida talqin etadi. Shuningdek, shaxsning yaxlitligi atrof-olamni anglash hamda ijtimoiy muhit sharoitida aniqlanadi.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirish uchun:

- shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, hissiy-estetik, jismoniy rivojlantirish;
- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yo'llash;
- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning individual o'ziga xosligini namoyon etishga sharoit yaratish;
- fuqarolik nuqtai nazarining tarkib topishiga erishish;

- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;

- o'z-o'zini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, Vatani va xalq oldida o'z mas'uliyati va burchini his etish kabi mezonlar asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsni axloqiy tarbiyalashda, avvalo, jamiyat talabiga mos holda axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg'ular, e'tiqod va xulqiga doir ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Ma'naviyatli inson bilimli, kasb-hunar egasi, Vatanning sodiq fuqarosidir. U o'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, o'z yurtidan g'ururlana oladigan, o'z Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. U jamiyat tomonidan tan olingan tartib-qoidalar bo'lib, kishilarning xatti-harakatlarini tartibga soladigan tamoyil sanaladi.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma'naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

- 1) ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- 2) ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ko'nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o'z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg'unligi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo'lgan hurmat-e'tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarining

e'tiqodga aylanishi va e'tiqodning tizimli bo'lishini ta'minlash va ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.


Estetik (nafosat) tarbiya bolalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg'uni rivojlantirish, hayot go'zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda uning jismonan to'g'ri rivojlanishi, o'z salomatligini mustahkamlashi; aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo'lishiga erishish; gigienik malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi; turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish; jismonan sog'lom bo'lib, o'ziga va o'zgalarga quvonch baxsh etish, zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar o'rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an'analariga tayanish, ustoz-shogird, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o'zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhim sanaladi.

Shuningdek, shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yuqoridagilarga tayangan holda akmeshaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat deb belgilandi:



Shaxsni shakllantirishga akmeologik yondashuv

Tabiiyki, akmeologiyada doimo yechimi kerak bo'lgan bosh vazifalarni nazarda tutsak, individ, shaxs va faoliyat sub'yekti sifatidagi (avvalo professional sifatida) odamni "akme"sidagi umumiylik va alohidalikni faqat aniqlashga va sistematsiyalashga olib kelmoqda. Ular turli tuman qonuniyatlar va mexanizmlardagi farqlik va o'xshashlik, aniqlik bilangina chegaralanib qolmaydilar. Akmeologiya umumiylikdagi o'z akmesini turi va formalarini aniqlagandagina, masalalarni yechish ishiga to'qnash keladi va bu o'zaro harakatdagi umumiyliklarni o'z akmesiga erishishni belgilab beruvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillarni kuzata oladi.

Demak, insonning yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta'sir etadi.

Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida shahs rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

2.1. Akmeologiyaga falsafiy, psixofiziologik va metodologik yondashuvlar tahlili

Ilmiy bilishning boshqa sohalari kabi akmeologiya ham nafaqat fan sifatida uni kategoriyali – metodologik konstitutsiyalovchi umumiy tamoyillarigagina emas, balki predmetli – metodik bilimni spetsifik sohasi sifatida uni xarakterlovchi konkret predmet fan xususiyatlariga ham ega. Modomiki u shakllanayotgan ilmiy Fan ekan uni predmetli metodik spetsifikasini va kategoriyali metodologik ramkalarini belgilash alohida loyihalananadigan masalani o‘zida mujassam etadi, uni yechimidan ma’lum ko‘p jihatdan akmeologiyani konkret tadqiqotlarning keyingi rivojlanish yo‘llari bog‘liq bo‘ladi. Ularga uchta asosiy ilmiy metodologik oriyentatsiya (yo‘l) taalluqli (prisushe): tabiiy-ilmiy, texnologik va ijtimoiy – gumanitar.

Akmeologiyadagi tabiiy ilmiy oriyentatsiya. Birinchidan, avvalroq klassik tabiiy fanlarda jihatida Fan standartlariga (eksperimentlarni, faktlarni, mexanizmlarni, qonuniyatlarni, matematik haqiqiylikni va boshqa ko‘rinishdagi o‘rganish) amal qilishda ifodalanadi. Ikkinchidan, bir qator akmeologik muammolarni analizlarda (iqtidorlik tabiati, iqtidorlikni genetik va psixologik komponentlari, professional mahoratni tug‘ilishidagi psixologik dastlabki shart-sharoit va boshqa) kattalar fiziologiyasi, psixogenetika, mehnat psixologiyasiga kabi tabiiy ilmiy fanlarga appelyatsiyasi (shikoyat arizasi) o‘z o‘rni bor.

Akmeologiyadagi gumanitar oriyentatsiyasi – yanada ko‘p obrazli hisoblaniladi. Inson to‘g‘risidagi fanlarga mansub akmeologiya o‘zini ontologik aniqligiga ega bo‘lmoqda: bir tarafdin tarixiy rivojlanishi mobaynida ushbu fanlar bilan genetik o‘zaro harakatdagi zaminida, ikkinchi tarafdin ulardan shakllanayotgan mustaqil fan sifatida predmet jihatidan chetga o‘tmoqda. Albatta, o‘z-o‘zidan ma’lumki akmeologiya paydo bo‘lmasidan avval psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar tomonidan qadimdan, professionalizm ijod, kattalarni ta’limi tadqiq etilgan va bu akmeologik muammoga ko‘p jihatdan o‘xshash

bo'lgan. Ammo mahoratni pishishini o'rganishga, cho'qqili uni «akme» shaklini taraqqiyot qildirish, rasm qildirish o'rnatish spetsifik akmeologik muammoni tug'dirdi, so'ngra akmeologik original model va texnologiyalarni konseptual metodik qurilishga olib keldi va o'zini spetsifik alohida predmet va metodlarini tug'ilishi va rasmiylashtirishga olib keldi.

Akmeologiyani texnologik oriyentatsiyasi uni texnik fanlar bilan nafaqat bevosita harakatida (kibernetika, sistemotexnika, informatika va boshqalar) balki unga xos tabiiy bilimlarga amaliy yo'nalgan unga xos algoritmik aniq standartlardan foydalanishda hamdir. Bunda shuni nazarda tutish kerakki bir tomondan akmeologiyani texnik fanlar bilan o'zaro aloqasi o'zidan o'zi amal qilmaydi, balki ekonomika orqali boradi, ularni problematikasini inson omilini texnikada optimallashtirishni ta'minlaydi (misol avtomatlashgan odam mashina tizimlarni boshqarish va boshqalar) tomonidan akmeologiyaga zavonaviy praksiologiyani ta'sirini hali hisobga olish kerak. Ikki tomonli jarayon gumanitar fanlarni texnologiyalash sifatida misol uchun psixotexnika va infotexnika, innovatika va releksif (I.N.Semenov, 1994) hamda texnik fanlari gumanizatsiyasini (bionika, sotsionika, simeronika va boshqa).

Zamonaviy praksiologiya T.Kotarbinskiyni uni davomchisi tadqiqotchi A.A.Bogdanov testlarni ishlab chiqib ilmiy ijod tashkil etish K.Bastelevni mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqa ijtimoiy amaliyotni turli sohalarida faoliyatni ratsional tashkil etishni pozitiv tamoyillarini ko'rsatishga intilmoqda. Nafaqat umumiy tizimlar nazariyasi pozitsiyasidagina emas balki biologik, ijtimoiy, psixologik, texnik pozitsiyadan ham (L.Bertalanfi, A.A.Malinovskiy va b.q.), balki odamshunoslik ma'lumotlarni (B.G.Anan'yev, V.N.Neslimov, A.Pechchein, T.Sharden, I.T.Frolov va b.q) hamda ijtimoiy bilimlarni ham.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar bilimlar bilan akmeologiya o'rtasidagi aloqa nimada ifodalaniladi - tatbiqiy, ijtimoiymi: Fundamental, falsafiyymi? Xususan falsafa bilan aloqasi ikki asosiy liniyada amalga oshiriladi: dunyoqarash va metodologik. Metodologik jihatdan falsafa akmeologiyani qurilish vositasini kompleks fan sifatida qaraydi. Ya'ni u bir tomondan odam to'g'risidagi oraliq fan

bilimlarni aksemulyatsiya va integratsiya qiladi. Ikkinchi tomondan esa uni professional mahoratini paydo bo'lishida maxsus tassavvurlarni ajrati oladi va ishlab chiqadi. Bunday vosita sifatida metodologik tamoyillar chiqadi: falsafiy kategoriyalar va ilmiy tushunchalar bilan operatsiyalar o'tkazish, ob'yektlarni ajratib olish va tadqiqotni predmet va strategiyasini ishlab chiqish, u to'g'risidagi fenomenologiyani analizi va u to'g'risidagi bilimlar sintezi, konseptual modellarni va akmeologik metodlarni ularni empirik verifikatsiyasida qurish, eksperimental tadqiqotlar va olingan ma'lumotlarni nazariy umumlashtirishni olib borish, ularni akmeologik interpretatsiyasini amalga oshirish va professional ta'lim va ijtimoiy boshqaruvni ijtimoiy amaliyotida qo'llash texnologiyasini yaratish.

Shunday qilib, falsafa fundamental tatbiqiy xarakterga ega mustaqil ilmiy fan sifatida akmeologiyani qurilish metodologik ramkalarini qo'yadi.

Undan tashqari falsafa o'zini dunyoqarashiipostasi bilan olib qaraganda mezonlar (ekzistensial, kulturologik, yuridik, ahloqiy, estetik va b.q.) tizimini uni qo'yilishini va o'rganishini aniqlab turib akmeologik problematikani analizda qimmatli hisob qilib nuqtasini ham beradi.

Zamonaviy akmeologik tadqiqotlar, texnologiyalar va ishlanmalar ijtimoiy amaliyotda umuminsoniy qadriyatlar va milliy an'analar, gumanistik va madaniy idelallar, sog'lom fikr va iqtisodiy effelivlikni tamoyillarni, sivilizaviy huquqiy ong va ratsional tashkil etish, ekologik maqsadga muvofiqlik va estetik gormoniya, ijodiy o'zini takomillashtirish, muloqotni samimiyligi va o'zini ifodalashni erkinligi, turli individual tajribalarni chuqur kechinmalari va odamlarni konstruktiv o'zaro harakatida va ularni ijodiy professional faoliyatlari jarayonlarida o'zaro tushunishni topmoq, qo'lga kiritmoq, qozonmoq. Shunday qilib, falsafa dunyoqarash nuqtai nazardan akmeologiyaning ideallari va praksilogik maqsadlarini ijtimoiy Fan va bir vaqtni o'zida zamonaviy odamshunoslikni alohida bo'limi xususidagi fanlar sifatida ijtimoiy Fan deb beradi.

Ushbu ijtimoiy – gumanitar tabiatiga va o'zini akmeologik gnoseologik statusiga binoan akmeologiya quyidagi sotsional fanlar tarix va

madaniyatshunoslik, sotsiologiya va iqtisodiyot, siyosatshunoslik va nizoshunoslik, pedagogika va ekologiya kabilar bilan bogʻlangan.

Ushbu fanlar bilan akmeologiyaning oselkavoy mustahkam liniyasi oʻzaro xarakterining mustahkam liniyasi insonni shaxs sifatidagi ijtimoiy taʼlimini ijtimoiy – madaniy fazasi va tanlangan sohasidagi faoliyatidagi uni professional ekzistensial oʻzini namoyon etishda xizmat etadi. U dinamik oʻzgaruvchan ekologik - iqtisodiy qurshovida oqib oʻtadi va hisoblangan oilaviy va ishbilarmonlik hayotidagi hamkorlari bilan oʻzaro harakatida insoniy muloqot va axborot kommunikatsiyasi, mehnat faoliyati va ilmda, sanʼatda, boʻsh vaqtda amalga oshadi.

Yaratuvchan madaniy anglangan xudi mehnat kategoriyasini oʻzi professionalizm, tashkil etishva boshqarish kabi muhim tushunchalarini turli ijtimoiy aspektlarini talqinini aniqlab turib uni ijtimoiy fanlar bilan asosiy oʻzaro xarakterini belgilaydi.

Akmeologiyani jamiyatshunoslik bilan oʻzaro aloqasidan farqli oʻlaroq. Asosiy kategoryasi odam haqidagi fanlarni oʻzaro harakatini xarakterlovchi jamiyatshunoslik bilan akmeologiyani oʻzaro aloqasini farqi bu ijod hisoblanadi. Xuddi ushbu kategorya akmeologiya uchun muhim hisoblangan psixologik tushunchalar: mahorat, rivojlanish, yetuklik, iqtidorlik, qobiliyat, kreativlik, takomillashtirish, evristika, releksika, ong, shaxs, individuallik kabi odam xususidagi oraliq fanlar bilan akmeologiyani oʻzaro xarakterini ochib beradi.

Zamonaviy insonshunoslik fanlari bilan akmeologiyani aloqalari qanday? Tabiiyki unga yaqinroq tabiiyki psixologiya turadi. Psixologiya odamni oʻrganishdagi hozirgi zamon fanlari ichida eng asosiy fandır. (B.M.Kedrov, J.Piaje).

Oʻz navbatida zamonaviy psixologiya, umumiy psixologiya koʻngil, qalb va psixika haqidagi fan sifatida turli psixologik fanlarning juda ham differensialashgan va yoyilib ketgan tizimini oʻziga qamrab oladi, namoyon etadi, mujassam etadi. Fundamental (shaxsni, uni psixikasini va ongini, jarayonlari va holatlarini, faoliyat va hulqini, rivojlanish va ijod) fanlarnigina emas, balki yo shva

pedagogik, sotsional va muxandislik, psixofiziologiya va patopsixologiya va boshqalarni o‘z ichiga olgan tatbiqiy fanlar ham uni ichiga kiradi. Ravshanki, turli bilimlar (umumiy psixologlar ham uni tatbiqiy sohalarida ham to‘plangan) odamni psixik imkoniyatlari xususidagi u yoki bu fragmentar ma’lumotlar formasida akmeologik tadqiqotlar va (ishlanmalarda) ishlab chiqishlarda doimo foydalaniladi. Ammo odamni professional mahoratini qad ko‘tarishda akmeologik grammatikasi ishlab chiqishni psixologik bazasini tashkil etuvchi psixologiyani shunday sohaları alohida qiziqish uyg‘otadi. Shu nuqtai nazardan akmeologiya uchun psixologik bilimni “ildiz tizimi” bo‘lib, psixologiyani differensial va yoshiga qarab, sotsial va pedagogik hamda mehnat psixologiyasi va ijod, faoliyat va ong, tafakkur va refleksiya, anglash va boshqaruv, munosabat (muloqot) va shaxslar, iqtidorlik va individuallik kabi bo‘limlari hisoblanadi.

Individual odamni shaxsini o‘zi ifodalash va ijodiy o‘zini namoyon etish uchun tabiiy arena bu – odamlar dunyosi va ularni ijtimoiy amaliyotidir. Chunonchi xuddi shu sohada (dunyoda) uning professional faoliyati o‘zining cho‘qqisiga, ijodiy formasiga tomon shakllanadi va rivojlanadi. Boshqarish sohasida ilm-ta’limda, fanda, texnika va ijtimoiy amaliyotning boshqa sohalaridagi ijodni oyoqqa turishi qad rostlash namoyon bo‘ladi va professional faoliyatining ham, uni ham subyektiv nizolarida paydo bo‘ladigan obyektiv qarama - qarshiliklarni yengib o‘tish bilan bog‘lanadi. Shuning uchun boshqaruv kadrlarni professionalizmni rivojlantirishni akmeologik texnologiyalarni ishlab chiqishni birlamchi shartlaridan biri akmeologiya va konfoyektologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ko‘rib chiqish hisoblanadi.

Odam faoliyatining turli sohalaridagi ichki va shaxslararo konfliktlari rolini hamda u tomonidan professional ijodni rivojlantirish maqsadiga erishishni usullari ishlab chiqish Bilan konfliktologiya shug‘ullanadi.

Kompleks ilmiy Amaliy fan sifatidagi konfliktologiya politologiya, huquq, pedagogika, psixiatrol, psixologiya, sotsiologiya kabi bir qator gumanitar fanlar tutashuvida yaqindagina paydo bo‘ldi. Konfliktologiyani muhim xususiyati bo‘lib, turli tuman konkret vaziyatlardagi odamlarni va konflikt jarayonlarni ham

millatlararo va ijtimoiydan to guruxaviy va shaxsiy ko'rib chiqish muhim xususiyat hisoblanadi.

Professional ijod problematikasi munosabati bilan bizni u yoki bu ijtimoiy kontektda shaxslar va guruxaviy asosan konfliktlar qiziqtirish muqarrardir. Subyektivlikni intra va interini o'rganishda vaziyatga yo'nalganlik odamni borlig'ini sinxronik aspektida uni hayot faoliyatini konfliktligini ko'rib fan sifatidagi konfliktologiyani ontologik statusini belgilaydi. To'g'risi ham shuda real konflikt har doim yo unday yo munday ma'lum vaziyat jihatidan qanday bo'lsada lokollashgan va unga konkret odamlar jalb etilgan. Bu jalb etilganlik u yoki bu muammoli – konfliktli vaziyatni paydo bo'lishi va hal etilishi spetsifikasini belgilovchi ko'pdan - ko'p (shu jumladan chuqur) faktorlar Bilan u determinlashgan bo'lsa-da vaziyatli – sinxronik xaraterni oladi.

Akmeologiya odamni borlig'ini diaxronik aspektida o'rgana turib, o'zini diqqat e'tiborini uni hayotini turli yosh davrlaridagi kasbiy faoliyatini mahsuldorligiga (ijodiy yutuqlar, ijtimoiy tan olinishi, shaxsiy muvaffaqiyatlar va boshqalar) qaratadi. Akmeologiyaning vazifasi – eng oliy darajadagi professional mahoratga qadar hayot faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish vositalarini ishlab chiqishdir. Eng muhim savol bo'lib, Akmeologiya uchun odamni turli-tuman professional faoliyat boshqarish sohasida, fanda va ixtirochilikda, ishbilarmonlikda, ta'limda va b.q. ijodiy potensialini paydo bo'lishi va rivojlanishi muammosi hisoblanadi.

Ushbu fundamental muammoni konseptual hal etish asosida qator tatbiqiy vazifalarni konstruktiv ishlab chiqish mumkin: bularga iqtidorlikni daignostikasi, ijodiy potensialga ega kadrni tanlash, ularni professional mahoratni akmeologik darajagacha rivojlantirish maqsadida ijodiy kadrlarni individuallashtirish o'qitish dasturlarini yaratish va b.q. kiradi. Mana shunday konseptual asosni ishlab chiqishda akmeologik problematikaga yoshi (pedalogiyaga chiqib boradigan) shablonini yengib o'tish zarur. Unga ko'ra professional ijod mahsuldorligi kummulyativ effekt (traktuyetsya), sotsial faktorlar (ta'lim, martaba va b.q.) shartlangan bo'lsada odamni yoshi imkoniyatlarini ochib berishni hosilasi sifatida

baholanadi. Bunga muqobil sifatida biz tomondan akmeologiyaga tizimli – funksional yondashuv taklif etiladi. Unga ko‘ra bu yondashuv professional faoliyatida yutuqqa olib keluvchi (kulturologik, sotsiologik, psixologik, fiziologik, genetik va bo‘lak dasturlarni hisobga olib) ma‘lum ijtimoiyliknida tan olinish, ijodiy mahoratni o‘z rivojida optimal darajasini erishuvchi odamni predmet potensialini oyoqqa turishi paydo bo‘lishi jarayonlarini o‘rganishga chaqirilgan, chorlangan.

Yutuqqa ega bo‘lishni muhim psixologik xususiyati shundaki u bir tomondan doimo aniq va konkret (bu ma‘noda u holatliy), ikkinchi tomondan ko‘plab determiniantlari bilan o‘zaro harakatida faoliyat subyekting ko‘p qarama - qarshilikli uzoq konflikt rivojlanishning najasi hisoblashadi. Shunday qilib professional yutuq sifatidagi ijodiy «akme» konsepsiyasi ijodiy mahorat darajasiga yetgan ijodiy potensial rivojini amalga oshira turib, diaxronik akmeologiya va sinxronik konfliktologiyani konseptual metodologik o‘zaro harakati bazasida qurilish kerak, negaki ular ifodaning makro va mikro aspektlarini o‘rganar ekan bir-birini o‘zaro to‘ldirish munosabatida turadilar. Konfliktologiya ijodiy potensialining mikrorivojlanishini konflikt vaziyatlari muammosini, akmeologiya esa uni makrorivojlanish jarayonlari va natijalarini tadqiq etadi.

Ijodiy faoliyatni analiz uchun sinxronik va diaxronik kategoriyalarini konstruktivligi M.Baxtin ishlarida aytib o‘tilgan va zvonaviy refleksif psixologiyada (I.N.Semenov, S.Y.Stepanov, 1992) maxsus tadqiq etilgan. Uning ramkasida ishlab chiqilgan muammoli konflikt vaziyatlarni yechishda yutuqni konseptual modeli innovatsion jarayonni sinxronik va diaxronik akpestarini hisobga olib ijodiy yutuqqa erishuvni ta‘riflash va o‘rganishni konstruktiv vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modelga ko‘ra ijod faoliyatini subyektni yaratishni ikki mazmun turi ajratiladi: intellektual (uni predmetligini prezentlovchi, muamoli – konfliktni vaziyat va protseduralarini aks ettiruvchi, uni o‘zgartiruvchi) va shaxsiy («Men» obrazini prezentlovchi, Ushbu vaziyatni yengib o‘tish jarayonida ochib beruvchi va rivojlanuvchi), hamda unga muvofiq ravishda anglanuvchi ma‘noga ega bo‘luvchi? Agar intellektual ma‘nolar asosiy faoliyatni

anglashni ta'minlatsa, unda shaxsiylari – u muammoli – nizoli vaziyatlarni u aylanayotgan sharoitda qayta anglashni bildiradi.

Shu bilan nafaqat amalga oshirilayotgan faoliyat reflekslanadi, balki unda rivojlanayotgan shaxs ham reflekslanishda bu maxoratni konstelyatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu konseptual model bazasida evristik refleksiya effektiv vositalari, ijodiy potensialni rivojlanishni, sinxronik tuzilgan muammoli – konflikti vaziyatlarni yengib o'tish jarayonidagi professional mahoratni akmeologik darajasiga erishishni ta'minlovchi ijodiy potensialni rivojlanishning effektiv vositalari ishlab chiqishini mumkin. Bu nizolarni yechish tajribasi ma'lum refleksiya ijodni diaxronik rivojlanishda olib keladi. Ko'rib chiqilgan konsepsiyaga binoan rleksiya eskiga tafakkurni anglash va qayta anglash va (anglashni) ongni Yangi mazmuni (kreativli - innovatsion) tuzilgunga qadar ularni evristik yengib o'tishni o'zida aks ettiradi.

Odamni rivojlanishini muammo, mexanizmlari va usullarini o'rganish psixologik bilishning eng muhim aspektini har doim tashkil etib kelgan. Shuning uchun ham rivojlanish psixologiyasini alohida fan sohasiga ajratish bir qadar paradoksal xarakterga ega. ʻAqiqatan ham bir tomondan umumiy psixologiyada o'rganiladigan psixik funktsiya va holatlar har doim jarayon sifatida qaralgan va ma'lum vaqt davri istiqbolida va dinamikada umumiy psixologiya tomonidan tadqiq etilgan ya'ni juda bo'lmaganda mikrorivojlanish tomonidan o'rganilgan. Boshqa tomondan esa ko'pdan beri (XX asrdan boshlab) alohida soha bo'lib ajrab chiqqan yoshiga qarab psixologiya makrorivojlanishni, ya'ni odamni psixikasidagi yoshiga qarab o'zgarishlarni butun umri mobaynida o'rganadi. ʻAqiqatan bu yerda aksent doimo psixikani genezistni o'rganishga qo'yilgan, ya'ni shaxsni psixik funksiyalar, jarayonlar va xossalarni paydo bo'lish va o'rnatilish asosan ularni kata yoshdagi holatiga qadar o'rganilgan. Shuning uchun yoshiga qarab psixologiyada uzoq vaqtgacha yetuklikni, odamni qariligini kam intensiv tadqiqotiga nisbatan ayniqsa bolalik va o'smirlikni muammosi o'rganish ko'proq olib borilgan.

Bu XX asrni boshlarida shakllangan bolani rivojlanishini psixologiya va u bilan qin odam haqidagi fanlar vositalari bilan har tomonlama o'rganadigan kompleks fan sifatida pedologiyada o'z aksini topdi. Qanchalik paradoksal bo'lmasin bu fakt. Xuddi shunday qartayganlik haqidagi kompleks fan (gerontologiya) akmeologiyaga qaraganda ancha vaqtli alohida fan predmet sifatida shakllanadi. Akmeologiya hali – kata yosh, shaxsiy, ijtimoiy va uni professionalligi va ijodiyligini rivojini, ya'ni insonni yetukligi haqidagi integrativ fandır. Ko'rinishga bilishimizcha psixologik fan sotsiumni ijtimoiy eng aktiv elementi bo'lgan mehnatda band odamni – kata yoshdagi yetuklikni hammadan ham ko'proq o'rganish kerak edi. (balkim birinchi navbatda). Jamiyatni pedologiya tomonidan o'rganiladigan ularni bolalikdagi ontonegemga qaraganda ko'proq qiziqtirish lozim edi.

Odam haqidagi fan rivoji logikasi shunday ediki, XX asrda psixologiyani umumiy ta'limni (maktabgacha va maktab) ijtimoiy amaliyotiga xizmat etuvchi ijtimoiy buyurtmani ta'minlangan sohalari shakllandi.

Bu esa rivojlanish muammosini o'rganishda avval bolalar va pedagogik psixologiyasi va bundan so'ng kattalar va professional psixologiyasi ustivor bo'ldi.

Faqat XX asrni so'ngida odamni rivojlanish psixologiyasiga to'laligicha va uni yetukligini o'rganishga xususan akmeologiyaga qiziqishni paydo bo'lishni nimalar bilan tushuntirish mumkin? Xuddi shu davrda akmeologiya tomonidan o'rganiladigan professionallik va mahoratni yuksak darajasida ijtimoiy ish olib boradigan, boshqarish sohasi, menejment turli profillaridagi mutaxassislariga ijtimoiy talab alohida o'tkir fazasiga kiradi. Shuning uchun bolalarni umumiy ta'lim olishlarini ta'minlash yetarli emas: ya'ni professional – start oldidagi o'qitish sifatida uni na faqat yoshi va ta'limi jihatidagina emas balki ham ijtimoiy ham professional rivojlanish kontekstida qaramoq lozim.

II BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning amaliy asoslari

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirishning mazmuni va muhim tamoyillari

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma'naviy va moddiy sohalarida katta o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu shaxs omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, shaxs intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Jamiyat tomonidan shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o'z navbatida shaxs qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ayni vaqtda shaxs qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo'naltirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Mavjud sharoitda ta'lim tizimida 1) shaxsga yo'naltirilgan maqsadli ta'lim (ta'limiy jarayon shaxsning sub'ektiv tajribasiga tayangan holda olib boriladi); 2) amaliy-faoliyatli (shaxs ta'limiy faoliyatning faol sub'ekti hisoblanadi); 3) ta'limga insonparvarlik-shaxsiy (pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ijobiy "Men" kontsepsiyasini shakllantirish) hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kabilar yetakchi o'rin tutmoqda. Bunday yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi shaxs:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikrlarini erkin bayon etish, ularni yangi muammolarni aniqlash va hal etishda qo'llay olish;
- turli ijtimoiy guruhlarda muloqotga kirisha olish, turli soha va turli vaziyatlarda ziddiyatlarni mohirlik bilan hal qila bilish;
- axloqi, intellekti, madaniy darajasini rivojlantirish yo'lida mustaqil izlanish kabi shaxslik xislatlariga ega bo'lishi talab qilinadi.

Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" g'oyalarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, ta'lim jarayonining ularga muvofiq tashkil etilishi ijtimoiy buyurtmaning muvaffaqiyatli bajarilishini ifodalaydi. Jumladan, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim islohotlarining asosiy maqsadi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan [7;12].

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida ham erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, mustahkam e'tiqodga ega shaxslargina bunyod eta olishiga urg'u berilib, yangilanayotgan jamiyatda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga e'tiborni qaratish alohida dolzarblik ahamiyatga ega ekanligi aytiladi .

Pedagog olimlar Sh.Qurbonov, M.Quronov, E.Seytxalilovlar inson shaxsini shakllantirishda ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy shartlari uni insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish, tabaqalashtirish, fuqarolik va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishdan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadilar: "Milliy model va dastur... o'z Vataniga fidokor, istiqlol va demokratiya g'oyalariga sadoqatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnashadigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadigan, o'z mamlakati taqdiri uchun mas'ul bo'lgan shaxsni tarbiyalash - Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadlaridan biridir" [28; 45,47].

Pedagogik nazariya g'oyalariga ko'ra shaxs kamolotida tarbiya (ta'lim) va ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi. Jamiyatning a'zosi sifatida u ijtimoiy ahamiyatga ega muayyan vazifalarni bajaradi, yosh jihatidan ulg'aygani sari u tomonidan bajarilayotgan ijtimoiy rollar shakli va mazmuni o'zgarib boradi, qiziqishlari va qobiliyati darajasida atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi. Mazkur jarayon o'z mohiyatiga ko'ra bevosita shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning ijtimoiylashuvida esa ta'lim tizimi, unda ustuvor bo'lgan maqsad hamda ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik

jarayonning sezilarli ta'siri va rolini inobatga olgan holda ta'limni shaxsga yo'naltirish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida shaxsni shakllantirish jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi.

Yuqorida ilgari surilgan g'oyalarga tayangan holda shaxsni tarbiyalashga akmeologik yondashuv mazmunida quyidagi holatlar o'z aksini topishi lozim degan xulosaga kelindi:

1. Kadrlar tayyorlash borasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi, intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq har tomonlama rivojlangan shaxsning kamol topishini nazarda tutadi. Bunda har bir yoshning ilm olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual rivojlanish, kasbiy, mehnat huquqlari ro'yobga chiqadi. Respublika uzluksiz ta'lim tizimida har bir shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish taqozo etiladi. Bu o'rinda milliy-madaniy, tarixiy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimining tashkiliy-pedagogik tamoyillarining ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Islohotlar jarayonida ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish erkin fuqaroni, o'z haq-huquqini taniydigan shaxsni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitni yaratadi. Shaxs qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, uni milliy va umuminsoniy ma'naviy boyliklardan bahramand etish, shaxsga ta'lim-tarbiya berishda tarixiy an'analarga asoslanish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda o'zaro uyg'unlikni ta'minlash, shuningdek, ta'lim jarayonida shaxsning haq-huquqlarini inobatga olish, uning qadr-qimmatini, sha'nini hurmat qilish – ta'limda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi (ta'limning insonparvarlashuvi)ni ifodalaydi. Mazkur jarayonda shaxsning ongli ravishda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olib bilish, intellektual va axloqiy imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga intilishi muhimdir.

Ta'limni demokratlashtirish – ta'lim jarayonida shaxsning qiziqish va hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish, ta'lim tizimida shaxs istaklarini inobatga olish, unga moslashish bo'lib, yangilanayotgan jamiyatda fuqarolik haq-huquqini anglaydigan,

mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishni taqozo etadi.

3. Ta'limning ijtimoiylashuvi esa uzoq va murakkab jarayon sanaladi. Jamiyatda har bir fuqaro shu jamiyatning ma'lum ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimiga, me'yor va qoidalariga rioya qilishga, shu jamiyatda yashash uchun uning teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi. Jamiyat tuzilishi va faoliyat yo'nalishi turlicha bo'lgan ijtimoiy institutlarga ega. Ijtimoiy institutlar – shaxsning tarixan tarkib topgan va tartibga solingan, shuningdek, murakkab shakl, tarkibiy tuzilmaga ega faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Ana shu institutlardan biri ta'lim tizimidir. Ta'lim jarayonida yosh avlod ijtimoiy qoidalar va axloq-odob me'yorlarini o'zlashtiradi. Shu bois bilim olish jarayonida bola nafaqat shaxs sifatida rivojlanadi, balki jamiyat hayotiga moslashadi.

Ta'limni ijtimoiylashtirish insonparvarlashtirish bilan uzviy aloqada amalga oshadi va yosh avlodni o'z qobiliyati, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Natijada har bir yoshning shaxsiy qiziqishlari hamda hayotiy intilishlarining ko'lami kengayadi.

4. Ta'limni differentsiatsiyalash shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati, aqliy rivojlanishi va uning moslashuvchanligi darajasini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni va hajmini belgilash hamda o'qitishning turli shakllaridan foydalanishdir.


Differentsiatsiyalashgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yondashilgan ta'limni tashkil etilishini ifodalaydi. Mazkur ta'lim bolalarning bilimlari, malakalari, muayyan fanga qiziqishlari, qobiliyatlari, yoshlari, jinslari, fiziologik holatlari, xarakterlari, ular yashayotgan muhit mohiyati kabilarning hisobga olishini anglatadi. Hozirgi davrda tabaqalashtirilgan ta'lim zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda bolalarning imkoniyat va layoqatlarini hisobga olib, o'qitishni tashkil etishda ta'limning turli shakl va metodlarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Differentsiatsiyalashgan ta'lim individual yoki guruh shaklida mashg'ulotlarni to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining dinamik rivojlanishiga yordam beradi. Mazkur ta'lim bolalar shaxsining bosqichma-bosqich shakllanib borishini ta'minlaydi.

5. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning asosiy talablaridan biri sanaladi. Zero, pedagogik texnologiya uzluksiz ta'lim tizimida barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan va nazariy g'oyalarni amaliyotda qo'llashning eng qulay vositasidir. Ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatiga ko'ra shaxsni rivojlantirish qonuniyatlariga asoslangan bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish shaxsni rivojlantirishning eng maqbul yo'llarini izlab topish imkonini yaratadi.

6. Ta'lim jarayonida iqtidorli bolalarni aniqlash ularning intellektual salohiyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish muhimdir. Zero, har bir jamiyatning intellektual salohiyati shu davlatning texnologik qudrati va moddiy farovonligining asosidir. Jahon ta'lim tajribasining ko'rsatishicha, ilm-fan va innovatsion texnologiyalar ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot poydevori bo'lib, har bir jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda intellektual qobiliyat, ilm-fan taraqqiyotning muhim sharti sanalib, yuqori baholanib kelinmoqda. Shu bois yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, yangicha fikrlay oladigan, intellektual qobiliyati yuqori darajadagi shaxsni shakllantirish mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Demak, shaxsni tarbiyalashga akmeologik yondashuv mazmunida quyidagi jihatlar o'z aksini topishi lozim:



Bugungi kunda jahon pedagogik amaliyotidagi ta'limning an'anaviy **“tarbiyachi - ta'lim vositalari va tarbiyalanuvchi”** tizimi o'rnida tarbiyalanuvchini bilish faoliyatiga yo'naltiruvchi **“tarbiyalanuvchi – ta'lim jarayoni - tarbiyachi”** ko'rinishidagi yangi tizim tarkib topmoqda.

Ta'limning an'anaviy tizimida tarbiyachi markaziy o'rin egallagan bo'lsa, zamonaviy ta'lim tizimida esa tarbiyalanuvchi asosiy sub'ekt sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni pedagogik faoliyat markazida an'anaviy ta'limda bo'lgani kabi o'qitish emas, balki ta'lim oluvchining bilish faoliyati, uning intellektual qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish fan asoslarini o'rganish va o'zlashtirish bilan birga aqliy faoliyatning maqsadga muvofiq usullariga ega bo'lishni ham nazarda tutadi. Aqliy faoliyat nafaqat bilim asoslarini egallash, balki o'zlashtirilgan bilimlarni qiyoslash, tahlil qilish, sintezlash, abstraktlash, umumlashtirish va ularni turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishni ham anglatadi. Shu tarzda faoliyatning samarali usuli umumlashtiriladi hamda turli ko'rinishdagi faoliyatni xilma-xil usullar yordamida bajara olishning umumiy metodi shakllantiriladi.

Shaxsni tarbiyalashga akmeologik yondashuvda uning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarni fikrlashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o'rgatish zarurdir.

“Fikr tarbiyasi, - deya ta'kidlagan edi ulkan ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, - ko'p zamonlardan beri tadqiq qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi” [11; 15].

Fikrlash qobiliyatiga egalik, birinchidan, ma'lumotlarni, axborotlarni o'zlashtirish, ularni o'zaro qiyoslash va umumlashtirishni, ikkinchidan, o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda faoliyatni tashkil etishda qo'llay olish tajribasini nazarda tutadi. Bunday ko'nikmani shakllantirish uchun bolalarni turli masalalarni mustaqil yechishga o'rgatish, ularni harakatlar tizimi, tarkibiga ko'ra

dastlab oddiy, keyin esa murakkab mashqlarni yechishga o'rgatish muhim. Bunda topshiriqlarni bajarishni rejalashtirish (tahlil qilish, usullarni tanlash va bajarish tartibini belgilash), jarayoniga alohida e'tibor qaratish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish maqsadga muvofiq. Tanqidiy fikrlash g'oya va axborotlar bilan faoliyatni o'zaro uyg'unlashtirishning tabiiy usuli bo'lib, bu jarayonda, shuningdek, ish natijalarini baholash, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish muhimdir.

Respublika va rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tajribalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash turli g'oya va fikrlarni muhokama qilish, bolalarning shaxsiy fikrlariga hurmat bildirish, ularga fikrlash uchun sharoit yaratish va ularning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beruvchi ta'lim sharoitlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Savollar va javoblarni tashkil etish ham fikrlash jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi.

Shuni ta'kidlash muhimki, samarali (produktiv) fikrlashni reproduktiv fikrlashdan farqlovchi muhim belgi mustaqil ravishda yangi bilimlarni kashf qilishdir. Samarali fikrlashning eng oliy darajasi ijodiy fikrlash bo'lib, uning vazifasi – ijod qilish, o'ylash, tayyorlash, yangilik yaratish, ixtiro qilish va hokazolardan iborat.

Yoshlar, shu jumladan, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini rivojlantirishda B.Blum, V.P.Bespalko, M.A.Choshanov, G.I.Shukina, V.V.Davidov, E.G'oziev, B.Qodirov va boshqalar tomonidan taklif etilayotgan modellardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limda ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Bugungi kun talabi ham ta'lim mazmuni va hajmini cheksiz kengaytirishga yo'l bermay, balki shaxsni mavjud muammolarni noan'anaviy tarzda yechishga tayyorlashni taqozo etadi. Shaxs ongida o'zlashtirilgan yoki shakllashtirilgan nazariy tushunchalar tizimi o'quv faoliyatining asosi bo'lib qoladi. Bolaning o'quv faoliyatini takomillashtirish, ya'ni uning intellektual, fikrlash qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy natijasi bo'lishi lozim. Shuni ham ta'kidlash joizki, aqliy rivojlanishning asosini bilish jarayonlarini tabaqalashtirish

tashkil etadi. Zero, tabaqalashtirish bevosita hissiy bilishdan abstrakt yechimlarga o'tishning muhim jarayoni hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim ta'lim oluvchilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- tezkor o'zgarishlarga ko'nikish, hayotiy faoliyat, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilishda o'zlashtirgan bilimlarini mohirlik bilan qo'llay olish;

- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, real borliq va yuzaga keluvchi muammolar mohiyatini anglay olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish;

- egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llashning samarali usullarini topish, yangi g'oyalarni ilg'ab olish va ijodiy fikrlash;

- axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida samarali foydalana olish va ularni qo'llay bilish.

Respublika ta'lim muassasalari amaliyotida shaxsni intellektual rivojlantirish, tarbiyalashda ta'limni individuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Individuallashtirish o'quv faoliyatining barcha shakllarida: ommaviy, guruhli va yakka (individual) tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Bularning barchasi shaxsni tarbiyalashga akmeologik yondashuvda katta ahamiyat kasb etadi. Lekin shaxsda ijodkorlikni shakllantirish hozirgi davrda yangicha munosabat, yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ijodkorlikni shakllantirish – XXI asrning jamiyat taraqqiyotida barcha davlatlar siyosatining ma'naviy omili bo'lib qolmoqda.

An'anaviy ta'lim bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda u qadar katta imkoniyatlarga ega emas edi. Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning muhim sharti – bolalarning bilishga yo'naltirilgan faoliyatlarining ijodiy xususiyat kasb etishiga erishish, mazkur jarayonni faollashtirish sanaladi. Bunda bolaga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki:

- tarbiyachilarni bolalar bilan o'zaro hamkorlikka yo'naltirish;

- ta'lim jarayonida bolalarni tarbiyachilarning buyruqlarini bajartirishdan cheklab, ularning faoliyatlarini faollashtirishga tayyorlash.

Demak, bilim olishdagi faollik bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning muhim shartidir.

Bilim olishdagi faollik – shaxsning bilim olishiga bo'lgan intilishi, aqliy bilishga diqqatini kuchaytirishi va iroda kuchini namoyon etishga doir shaxs faoliyati holati bo'lib, u faoliyatning quyidagi holatlarida namoyon bo'ladi:

- bolaning ijodiy faoliyatida bilim olish jarayonida idrok, diqqat, xotira, tafakkurni intensiv rivojlantirish;
- ma'naviy-axloqiy me'yorlarni bilish va ularga amal qilish (yaxshilik va yomonlik, hamdardlik va ko'rolmaslik, jasurlik va qo'rqqoqlik)ning farqiga yetish;
- o'zining shaxsiy xususiyatlari hamda hayotiy muammolarning mohiyatini tushunish;
- shaxsiy imkoniyat va layoqatlarini namoyon eta olish;
- o'z ustida ishlash, shaxsiy kamchiliklarini tushunib, ularning oldini olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- o'z qadr-qimmatini aniqlash va o'zini hurmat qilish;
- bilish faolligini oshirish, tasavvurlarini boyitish, bilimlarini, tajriba va qiziqishlarini kengaytirish.

bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- har bir mashg'ulotda bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish, o'z faoliyatidan qanoat hosil qilishga erishish;
- bolalarning o'z salohiyati va qobiliyati darajasini bilishga erishish;
- qobiliyatli bolalar bilan individual ishlash dasturlarini tuzish;
- turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirisha olish;
- o'z axloqi, ilmiy salohiyati, madaniy darajasini o'stirish ustida mustaqil shug'ullana olish;
- atrof-olamni o'rab turgan narsalar va voqea-hodisalarning o'zaro aloqadorlik qonuniyatlariga ijodiy yondashib, o'zgarishlarga ijodiy munosabatda bo'lish;
- bilim olishga rag'bat, axloqiy talablarga rioya etish.

Mustaqil izlanish, ijodiy topshiriqlarni yechish, olingan natijalarni umumlashtirish hissiy kechinmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tabiiy holda bola nutqida aks etadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvda til madaniyatini tarbiyalash talab etiladi.

Tilni bilish uning asosiy vazifalari – aloqa, xabar, bilish, faoliyatni rejalashtirish va muloqotni tashkil etish, hissiy-estetik va ma'naviy-axloqiy ta'sir etish, tarbiyalash vositasi sifatida inson ehtiyojlarini qondiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra (A.V.Petrovskiy, B.M.Nemenskiy va boshqalar) inson shaxsi mantiqqa nisbatan fikr va hissiyot birligiga e'tibor qaratadi. Boshqacha qilib aytganda, hissiyotlar insonni insonga aylantiradi.

Bu holat turli fikrlarni qiyoslash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zero, qiyoslash, chog'ishtirish asosida shaxsning mantiqiy va kognitiv tasavvurlari til vositasida ifodalanadi.

Qiyoslashning fikrlash va bilish jarayonidagi muhim ahamiyati taniqli olimlar – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar tomonidan alohida e'tirof etilgan bo'lib, ularning fikrlaricha, axborot, ma'lumotni tushunish fikrlashning asosi sanaladi. Borliqda kechayotgan har qanday voqea-hodisalarning mohiyati qiyoslash asosida anglanadi. Shu bois bolalarni ta'lim jarayonida qiyoslashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Qiyoslash (chog'ishtirish) umumiy va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Umumiylik barcha o'quv fanlari doirasi (tahlil, sintez, qiyoslash va h.o.)da, o'ziga xoslik esa muayyan predmet bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida aks etadi.

Mavjud adabiyotlarning tahlili qiyoslashning quyidagi to'rt bosqichdan iborat ekanligini tasdiqladi: dastlabki belgilarni ajratish; umumiy va muhim belgilarni aniqlash; qiyoslash uchun asosiylarini ajratish; berilgan asosiy belgilar bo'yicha qiyoslash.

Shaxsning intellektual qobiliyatini rivojlantirish davr talabi bo'lib, uni kamolga yetkazishning muhim asosi sanaladi. Yuqori darajada intellektual qobiliyatga ega shaxs:

- tez o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslashgan holda o'zini boshqara oladi;

- hayotiy muammolarni hal etishda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini faol qo'llay oladi;

- voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, mavjud muammolarni tahlil etish, vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topa oladi;

- yangi g'oyalarni, ijodiy fikrlarni boshqalarga tushuntira oladi;

- axborotlarni savodxonlik bilan o'zlashtira oladi.

Bugungi kunda shaxsning dunyoqarashi, uning jamiyatda tutgan o'rni, shaxs va shaxslararo munosabatlarning qaror topishi, shaxs va davlat, shaxs va jamiyat munosabatlari, uning burch va mas'uliyati, ijodiy qobiliyati va intellektual salohiyatini tarkib toptirish muhim sanaladi.

Mualliflar guruhi (R.X.Jo'raev, R.Safarova, X.I.Ibragimov, U.Q.Musaev) tomonidan tuzilgan "Pedagogika fani kontsepsiyasi"da shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunida quyidagilarning aks etishi maqsadga muvofiqligiga alohida urg'u berilgan:

1. Ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan bilim davlat va jamiyat taraqqiyoti, shaxs, fan, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishi.

2. Davlat ta'lim standartlari doirasida belgilab beriladigan yo'nalishlarning muayyan o'quv fani yoki ta'lim sohasi bo'yicha taqdim etiladigan o'quv materiallarining maksimum hamda minimum darajalarini aniq belgilab bera olishi.

3. Bolalarning egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilish mexanizmini yaratish [28; 25].

Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish va uni shaxsga yo'naltirish g'oyalarining ustuvorligi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi.

Tub ta'limiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslanadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning samarali bo'lishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir etadi, shu sababli

sub‘ektiv va ob‘ektiv omillardan maqsadga muvofiq foydalanish, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish talab etiladi.

**Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv
quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

1. Maktabgacha ta‘lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o‘zaro munosabatlar uslubi tarbiyalanuvchiga barcha insoniy xislatlarni o‘zlashtirish, o‘zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg‘usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

2. Pedagogik jarayon o‘zgalarning his-tuyg‘ularini his etish, axloqiy me‘yorlarga amal qilish, shuningdek, ta‘limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

3. Pedagogik jarayon tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini tarbiyalashi lozim.

Shu jihatdan pedagogik jarayonni tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda tarbiyalanuvchilarning yetuk balog‘at yoshida ekanliklari hamda ularning “Men”ini hisobga olgan holda o‘qitish texnologiyalarini tanlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, quyidagi shartlarga amal qilish ham talab etiladi:

1. Maktabgacha ta‘limda tarbiyalanuvchilarning erkin tanlash hissiga ega bo‘lishlari muhim. Bu ular nimani xohlasalar, shuni qilishlari mumkin degani emas, aksincha, ta‘lim jarayonida o‘quv-bilish faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, o‘quv materiallarining ular uchun shaxsiy ahamiyat kasb etishiga erishish, bilimlarni ongli o‘rganishga nisbatan xohish-istakni uyg‘otish zarur.

2. Bilimlar ta‘lim oluvchilarga tayyor holda yetkazilmay, turli faoliyatga jalb etgan holda ularni o‘ylashga, xulosalar chiqarishga, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga yo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yuzaga keladi.

3. Pedagogik jarayon tarbiyalanuvchida muayyan his-tuyg‘ularning uyg‘onishiga olib kelishi zarur. Zero, ta‘limni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad

tarbiyalanuvchiga ilmiy bilimlarni berish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, har bir tarbiyalanuvchining his-tuyg'ularini rivojlantirish, o'z ichki kechinmalarini anglash, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday jarayon tarbiyalanuvchining shaxs sifatida shakllanishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyani L.V.Zan'kov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham tasdiqlaydilar. Ta'limga nisbatan tarbiyaning natijasi birdan ko'zga tashlanmaydi. Ayrim holatlarda salbiy ta'sirlar tarbiyalanuvchining ijobiy sifatlariga teskari ta'sir etadi. Demak, tarbiya jarayoni o'zgaruvchan xususiyatga ega va u uzoq muddatli sanaladi.

4. Tarbiyaviy ta'sirlar vaqti-vaqti bilan ko'rsatilmay, balki uzluksiz, izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiya jarayoni, shuningdek, variativ bo'lib, u bir xil shakl yoki metod yordamida emas, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi hamda goho natijaga erishishda noaniqliklar ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holat tarbiyalanuvchining ham, tarbiyalovchining ham individual farqi, ijtimoiy tajribasi, tarbiyaga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiya, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, u tarbiyalanuvchidan ↔ tarbiyachiga; tarbiyachidan ↔ tarbiyalanuvchiga yo'naltiriladi. Tarbiyaga texnologik yondashuv mazkur talabning to'la qondirilishiga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda pedagogika nazariyasi va amaliyotida "texnologiya" tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. U.N.Nishonaliev, B.L.Farberman, V.P.Bespalko, M.Ochilov, N.N.Azizxodjaeva, N.Saidahmedov, M.V.Klarin, V.A.Slastenin, S.K.Ismagulova, O'.Tolipov, va boshqalarning ta'riflarini umumlashtirgan holda pedagogik texnologiya "Pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafodatlay oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon loyihasi" degan ta'rifga muammo nuqtai nazaridan qo'shilamiz.

Mazkur jarayon o'zaro ketma-ketlikka asoslanuvchi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- ta'lim jarayonining umumiy, asosiy maqsadini belgilab olish;

- ta'lim jarayonini real, muayyan bosqichlarga bo'lish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni belgilash;

- asosiy maqsadga erishish uchun juz'iy maqsadlarni hal etish.

Akmeologik yondashuvga asoslanuvchi pedagogik faoliyatning o'ziga xos murakkabligi shundaki, birinchidan, ta'lim bir butun, yaxlit jarayon bo'lib, pedagogik ta'sir shaxsda alohida sifatlarni tarkib toptirishga emas, balki tarbiyani yaxlit olib borishni nazarda tutadi; ikkinchidan, shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar ma'lum qismlarga ajratilmasdan, balki tarbiyachining o'ziga xos mahoratiga tayangan holda umumiy texnologik jarayonni tashkil etishga e'tibor beriladi; uchinchidan esa, yaxlit shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tarbiyachining ijodkorligi, ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiquvchi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan akmeologik yondashuvda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim sanaladi:

- tarbiyalanuvchining ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etish;

- tarbiyalanuvchining tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi;

- shaxs tarbiyasi bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi;

- shaxsni shakllantirishda aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlarining uyg'unligiga erishish;

- shaxsni shakllantirish jarayonining tizimliliigi;

- tarbiyalanuvchining bilim darajasini aniqlash.

Tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalashga akmeologik yondashuvda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasida hamkorlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, shaxsni shakllantirishga yo'naltiruvchi uslublar, tarbiyalanuvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayonda paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish, ijodiy ishchanlik muhitini yaratish, tarbiyalanuvchi faoliyatini baholash kabi o'quv-biluv ishlari amalga oshiriladi. Ammo ta'lim jarayoniga akmeologik yondashuv – bu hali shaxsni shakllantirishni to'liq hal etadi, degan so'z emas.

Bosh maqsad tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalashga akmeologik yondashuvga yo'naltirilgan ekan, ta'lim jarayonini muayyan bosqichlarga bo'lib olish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni ham belgilash, shuningdek, bosh va xususiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod hamda usullarni tanlash, bu yo'lda uchraydigan katta-kichik muammolarni hal etish asosida ular o'rtasida o'zaro uyg'unlikni hosil qilishga qaratiladi. Bu jarayonda bosh maqsad bilish jarayonini tashkil etish, tarbiyalanuvchida pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat bo'lsa, uni amalga oshirish chog'ida quyidagi xususiy maqsadlar ham hal etiladi:

- shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar;
 - irsiyatning shaxs kamolotidagi o'rni;
 - naslning ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga ta'siri;
 - muhitning shaxs rivojlanishiga ta'siri;
 - tarbiyaning shaxs shakllanishidagi o'rni;
 - faoliyatning inson hayotidagi ahamiyati;
 - shaxsni shakllantirishda individual xususiyatlar (shu jumladan, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlari)ni hisobga olish;
 - akseleratsiya va bu jarayonda yuzaga keluvchi pedagogik muammolar;
 - shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari;
 - jismoniy rivojlanish qonuniyatlari;
 - shaxsning ijtimoiylashuvi.
- Ushbu xususiy maqsadlar tarbiyalanuvchi akmesini shakllantirish jarayonida:
- ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;
 - kasb-hunarga yo'llash;
 - ma'naviy- axloqiy tarbiya;
 - aqliy tarbiya;
 - ijtimoiy-g'oyaviy tarbiya;
 - jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
 - estetik tarbiya;
 - fuqarolik tarbiyasi kabilarni uyg'un holda tashkil etishni taqozo etadi.

Masalan, aqliy tarbiya jarayonida ilmiy bilimlar asosida tarbiyalanuvchi dunyoqarashi shakllanib, tabiat va jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalar haqida tushunchalar paydo bo'ladi, mantiqiy tafakkur rivojlanadi, aqliy qobiliyat namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hayotni to'g'ri yo'lga qo'yishga yo'llaydi.

Tarbiyalanuvchining axloqiy kamolga yetishida:

- muayyan ilmiy bilimlarga ega bo'lish;
- ilmiy dunyoqarashga egalik;
- aqliy qobiliyatni rivojlantirish va uni ro'yobga chiqarish;
- bilishga doir qiziqishlarini uyg'otish va faollashtirish;
- bilimlarni doimiy ravishda oshirib borishga nisbatan ehtiyojni hosil qilish va hokazolar muhim sanaladi.

Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish va uni shaxsga yo'naltirish g'oyalarining ustuvorligi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi.

Tub ta'limiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslanadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning samarali bo'lishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir etadi, shu sababli sub'ektiv va ob'ektiv omillardan maqsadga muvofiq foydalanish, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish talab etiladi.

Pedagogik jarayon ijodiy xususiyat kasb etadi. Bu quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi tarbiyalanuvchiga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

2. Pedagogik jarayon o'zgalarning his-tuyg'ularini his etish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

3. Pedagogik jarayon yoshlarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, shaxs individ – shaxs – inson tizimida o'z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z haq-huquqini hurmat qilishga o'rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o'z bilim, qobiliyat va

ko'nikmalarini namoyon etib, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

Pedagogik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jisimoiy rivojlanishini ta'minlash, uning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarish, unda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Akmeologik yomdashuvni tashkil etishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, uning mazmunini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish va differentsiatsiyalash shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirish texnologiyasi

Akmeologik yondashuvni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalar katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bolalarning intellektual rivojlanishi;
- jismoniy rivojlanishi;
- mehnatga ijobiy munosabatning tarkib topisi;
- estetik did va estetik ongning shakllanishi;
- ekologik madaniyat;
- iqtisodiy tarbiya elementlari va xokazo.

Inson tafakkuri mustaqilligining shakllanishi va rivojlanishi o'z-o'zidan, avtomatik ravishda amalga oshavermaydi. Buning sharti ta'lim tizimiga bilimlarni yangicha o'zlashtirish yo'llari va buning uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni olib kirishdan iborat. Bulardan biri muammoli ta'limdir.

Muammoli ta'lim xususidagi qator adabiyotlar bilan tanishish, uning tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rnini aniqlash yuzasidan qilingan tadqiqotlar va o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga tayanib, shuni aytish mumkinki: tarbiyalanuvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining ishtirokida, ularning mehnati bilan o'rgatish maqsadida tarbiyalanuvchi oldiga o'sha bilimlarni muammo shaklida qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan o'qitish jarayoni muammoli ta'lim deb ataladi;

- muammo tarzida o'zlashtirilishi lozim deb topilgan, tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo'ysa bo'ladigan masala yoki topshiriqni muammoli masala deyish mumkin;
- an'anaviy metodlar bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan yoki mohiyatiga chuqurroq kirish lozim deb topilgan biror mavzu yuzasidan tarbiyachi tomonidan ataylab tashkil qilinadigan didaktik vaziyatni muammoli vaziyat deb atash

mumkin. Bunday vaziyat har xil muammoli savollar va topshinqlar yordamida tashkil qilinadi;

- muammoli ta'lim asosida o'rganiladigan, muammoli masala tarzida foydalansa bo'ladigan, muammoli vaziyat hosil qilishga, tortishuvlarga asos bo'ladigan, fikrlar xilma-xilligini keltirib chiqarishga arziydigan hodisa muammo sanaladi.

Muammoli ta'limda tarbiyachining muhim vazifalaridan biri bolada intellektual aqliy zo'riqishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun tarbiyalanuvchi duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni to'g'ri hisobga olish kerak: bola uchun hamma muammoli masala ham qiziq bo'lavermaydi. Boladan aqliy zo'riqishni, bilim, zehn va ongli izlanishni talab qiladigan masalalargina uning uchun qiziq bo'ladi. Tarbiyachi qiyinchiliklarni chamalaganda bolaning intellektual imkoniyatini ham hisobga olishi kerak. Ayrim tarbiyalanuvchilar uchun masala qancha qiyin bo'lsa, shuncha qiziqarli bo'ladi, boshqalarning darrov "tarvuzi qo'ltig'idan tushadi". Shuning uchun masalaning ob'ektiv qiyinligidan tashqari yechilishining sub'ektiv imkoniyatlarini ham inobatga olish kerak. Gap faqat tarbiyalanuvchilar tayyorgarligi darajasining har xilligi haqida emas, ular aqliy faoliyatining individual xususiyatlari haqida ham ketyapti.

Tarbiyalanuvchining oldiga muammo qo'yishdan maqsad shuki, u asta-sekin o'zi mustaqil ravishda muammo shakllantira oladigan darajaga yetishi kerak. Bu uning shunday ishlarni bajarishga bo'lgan ehtiyoji darajasiga bog'liq.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvni amalga oshirishning usul va vositalarini ko'rib chiqamiz: **1. "Aqliy hujum"** - o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. Amerikalik mutaxassis A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bu metodda tarbiyalanuvchilar oldiga ulardan aqliy zo'riqishni talab qiladigan muayyan bir masala qo'yiladi. Shu masala bo'yicha ishlayotgan har bir tarbiyalanuvchi tomonidan aytilgan fikrni rag'batlantirish va qayd etib borish, ishtirokchilarning erkinligini ta'minlash, bildirilgan fikrlar asoslanishini talab etish, bahs davomida birorta fikrni e'tiborsiz qoldirmaslik talab qilinadi. Tarbiyalanuvchilar tomonidan

aytilayotgan fikrlarga e'tiborsiz qarash ularni tanqid qilish yoki fikrlaridan kulish ta'qiqlanadi.

Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar bu jarayondagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga urg'u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o'ylamay qo'yadilar. Xar bir tarbiyalanuvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo'naltiriladi. Tarbiyalanuvchiilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

G'oya va fikrlar miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat varatilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

Xar bir tarbiyalanuvchi o'zgalari g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Avval taklif etilgan g'oyalarni biriktirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqliy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyalanuvchilar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi. Tarbiyalanuvchilarning g'oya va fikrlarini yozish yoki belgilash uchun varaqlar tayyorlab qo'yiladi.
- Xal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
- Ish jarayoni belgilab olinib, tarbiyachi «**Ilg'ab oling, g'oyalarga asoslaning, qo'shing, kengaytiring, o'zgartiring**» kabi luqmalar orqali bahs-munozarani boshqarib turadi.
- Qo'yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.
- O'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlarga aslo yo'l qo'yilmaydi.
- Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda, ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi.

-G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi.

-Barcha fikr va g'oyalar tinglangach yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

1. “Faoliyat o’yini” deb ataladigan metod yangi sohani o’zlashtirish, masalan, topshiriq o’rganishda ijodiy tafakkur faoliyatini jadallashtirish maqsadida alohida ahamiyatga ega. Bu usulning qimmatli xislati shuki, faoliyat modelini ijro etish orqali bolalarga biror bir kasb-hunar haqida tushuncha berish, shunmgdek, mazkur sohada ijodiy mulohaza yurita olishni, voqea-hodisalarni jonli, dinamik ravishda tasavvur qila olishni o’rgatish mumkin. Natijada salohiyatli, yetuk mutaxassislarni tarbiyalash imkoni yaratiladi.

Bu o’rinda shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan usullarni qo’llashda tarbiyachidan yuqori malaka va tarbiyalanuvchilar fikrlarining to’g’ri-noto’g’riligini baholash, sharhlab borish talab qilinadi. Biror ko’rinishda baholangan faoliyat yanada jonlanish, fikrlash jarayonini faollashtirish xususiyatiga ega bo’ladi.

2. “Aql peshlash” - bu mashg’ulotda o’tilishi kerak bo’lgan mavzu topishmoq shaklida uyushtiriladi. **Mehribonliklarimizning** so’zidagi harflardan foydalanib, so’zlar yasash (Topshiriqni bajarish muddati 5-10 daqiqa).

2	7	6
9	5	1
4	3	8

1 dan 9 gacha son beriladi. Shulardan 5 raqami o’zgarmas. Ixtiyoriy yo’nalishlar bo’yicha bir xil 15 raqamini hosil qilish va sonning turlarini aytib berish. (Topshiriqni bajarish muddati 5 daqiqa)

3. “Suhbat metodi”. Tarbiyalanuvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undashda ta’limning suhbat metodi o’ziga xos ahamiyat kasb etadi, metodika llmida suhbat metodiga bagishlangan anchagina ishlar mavjud. Bugun ta’lim tizimida yangi bilim va ma’naviy sifatlarning qayta kashf etilishi

tarbiyalanuvchilar ishtirokida tarbiyachi tomonidan emas, balki tarbiyalanuvchilarning o'zlari tomonidan tarbiyachi yordamida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Bunday qayta kashfiyotlar asar ustida ishlash davomida tarbiyalanuvchi va tarbiyachining jonli muloqotida, tom ma'noda izlanuvchi suhbatlarda amalga oshadi.

Tarbiyalanuvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan suhbatning asosiy talablaridan biri - savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham har xil bo'lishi. Tarbiyalanuvchini o'ylantiradigan, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan savollarni tayyorlayotganda tarbiyachi mashg'ulotdagi barcha tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik, ijodkorlik darajasini nazarda tutishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida tashkil qilingan suhbatlarda tarbiyalanuvchilar hamisha ham asoslangan, jiddiy javoblarni beraverishmaydi. Savollarga tarbiyalanuvchilarning to'laqonli javoblar berishida tarbiyachining yordamchi savollari qo'l keladi. Bunday vaziyatlarda bitta fikrga aniqlik kirituvchi bir nechta yoki o'sha fikrni rivojlantiruvchi turkum qo'shimcha savollar beriladi. Oquvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga undovchi suhbatlarni muvaffaqiyatli tashkil etishning shartlaridan biri - ularning javoblariga e'tibor, hurmat va chuqur mulohaza bilan yondashishdir. Javob berayotgan tarbiyalanuvchining fikrlari chalkashib ketishi yoki noaniq bo'lishi tabiiy. Tarbiyachining vazifasi uni butun guruhga tushunarli qilib sharhlab berish emas. Bu ta'lim metodikasida mutlaqo noto'g'ri hodisa. Tarbiyalanuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni qiynalib, izlanib, munosib so'zlarni topib, o'zi ifodalashi kerak. Tarbiyalanuvchining fikrini aytishga o'rinsiz ko'maklashish uni o'ylamaslikka o'rgatib qo'yadi. Agar yordam berish kerak bo'lsa, qo'shimcha savollar bilan tarbiyalanuvchining o'z fikrini aniqroq, tiniqroq ifodalashiga imkon yaratish mumkin.

Tarbiyalanuvchi nutqi haqida shuni aytish mumkinki, tarbiyachi javoblardagi silliqlikni birinchi o'ringa ko'tarmasligi kerak. Tarbiyalanuvchining javoblarini muntazam ravishda tuzatib, to'ldirib turish ham mutlaqo noto'g'ri. Albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikri olim yoki tarbiyachining fikridek

to'kis bo'lmaydi. Tarbiyalanuvchining fikri - mana shu to'ntoqligi, jo'nligi, jaydariligi, tarqoqligi bilan olimnikidan qadrliroq, tarbiyachinikidan qimmatliroq. Tarbiyachining vazifasi fikr ifodalashda mantiq, mustaqillik, izchillik, madaniyat va bilimlilikni tarbiyalashdir.

4. “Evristik metod”. Ta'lim jarayonida qo'llanilgan evristik metod tafakkur mustaqilligi nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlaydi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil mulohazalar uyg'otadi, muhokama qilishga, xulosa chiqarishga undaydi. Bu metodning asosiy shakli muhokama hisoblanadi. Suhbat metodida tabiyachi ko'p roq sukut saqlashi, eshitishi talab qilinsa, evristik metodda adabiy haqiqatlar tarbiyachi bilan fikr almashishlar, birgalikdagi tadqiqot va kuzatishlar orqali o'zlashtiriladi. Evristik metod tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlash, o'z holicha ishlash va yaratish xususiyatlarini qo'zg'atadi.

5. “Tadqiqot metodi”. Ta'limning tadqiqot metodida tarbiyalanuvchilar oldiga ularning bilimini orttiradigan masalalar qo'yiladiki, bu masala tarbiyachi rahbarligida tarbiyalanuvchilar tomonidan yechilib, yangi bilimlar o'zlashtiriladi. Tadqiqot metodi o'quv jarayonida tarbiyachi tomonidan baland darajadagi muammoli nazariy va amaliy tadqiqiy masalalar ko'tarilishini nazarda tutadi. Bu bilim olishning har bir bosqichida ta'limning mahsuldor-amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo'llash orqali amalga oshiriladi. Mazkur metodda tarbiyalanuvchilar amaliy ishni dalillar to'plash, ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish va umumlashtirish bilan birgalikda bajaradilar.

Ta'limda tashkil etilgan tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shundaki, unda **“kashfiyot”** mustaqil ravishda ajratilgan hodisa tahlilidan keyin, daliliy ashyolar, olingan natijalar solishtirilib, umumlashtiriladi, so'ng amaliy ish jarayonida sodir bo'ladi. Bunda tadqiqot topshirig'i sifatida tarbiyalanuvchilar mustaqil ravishdagi o'quv-biluv faoliyatining to'liq sikli – ma'lumot to'plashdan tortib uning tahliligacha, mustaqil ravishda muammo qo'yish va uni hal etish, masalaning yechimi va yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashga qadar qamrab olinadi.

6. “Ijodkorlik metodi”. Mashg’ulotlarda tarbiyalanuvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga o’rgatish uchun ularni ijodga undash maqsadga muvofiq. Masalan, barchaga yaxshi tanish bo’lgan **“Zumrad va qimmat”** yoki **“Ur to’qmoq”** ertaklarining nomini aytmasdan ularda ko’p qo’llaniladigan beshta tanish so’zni keltirish: **“mehnatkash”, “erka”, “o’gay ona”, “o’rmon”, “sehrGAR kampir”** hamda oltinchi begona so’z – **“vertolyot”** ko’magida ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin. Yoki **“ochil dasturxon”, “laylak”, “shum bola”, “qaynar xumcha”, “chol”** va begona so’z – **“uchar gilam”** ko’magida yangi ertak to’qishga yo’naltirish mumkin. Yoxud tugagan ertakni davom ettirish, qahramonlarning keyingi hayotini tasavvur qilishni talab etish ham o’ta foydali ijodiy ish turi hisoblanadi. Muhimi, bu bilan tarbiyalanuvchida mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmasi paydo bo’ladi.

Ertak qahramonlari xarakterini o’zgartirish bilan ham bolalarni ertak to’qishga o’rgatish mumkin. Bolalarning xayolot olami o’ta kuchli. Bundan mashg’ulotlarda unumli foydalana bilish kerak. Masalan, tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya’ni o’sha qahramonlar bilan boshqa ertak to’qish; mashg’ulotda hikoyachi rolini o’ynash - o’ylab topilgan voqeani mashg’ulotdoshlarga aytib berish singari topshiriqlar ham tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga yo’naltiradi.

7. “Izlab top”. Bunda, doskaga birini ko’rsatib, birini ko’rsatmay magnitli suratlar yopishtiriladi, shu ikki surat yordamida hikoya tuzishni tashkil qilinadi. **Masalan, quyosh-(qalam), shkaf-(it).** Suratlar ishtirokida hikoya tuzishda bolalar ikkinchi suratning nima ekanini bilmaydilar. Shu ikkinchi suratni qidirib dunyo-dunyo voqealarni aytib yuboradilar. Buni o’zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikkinchi so’z ishtirok etganini tarbiyachi belgilab borishi, o’yinning oxirida buni yuzaga chiqarishi, muvaffaqiyat qozonganlarni, albatta, rag’batlantirishi kerak bo’ladi. Mustaqil fikrlashga o’rgatishning bu turidan maqsad berkitilgan suratni topish emas, shu surat ko’magida tarbiyalanuvchilarni ijodga, mustaqil mulohaza yuritishga undashdir.

8.“Nima bo’lardi agar” metodi. Tarbiyalanuvchilarga «Nima bo’lardi agar» (davomi kutilmagan savollar) - **siz dinozavr bilan to’qnashib qolsangiz; siz suv osti mamlakatiga tushib qolsangiz; siz parilar makoniga borib qolsangiz; siz sehrGAR bo’lib qolsangiz; dunyoda pul bo’lmasa; dunyoni pul bosib ketsa; Toshkent o’zga sayyoraga uchib ketsa;** va hokazo g’ayrioddiy, xayolparastlikka undaydigan savollarni berish bilan ularni ijodga yo’naltirish, shu asosda bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga o’rgatish mumkin.

9.“Hikoya metodi”. Ushbu metodni qo’llashda tarbiyalanuvchilarga ularni o’ylantirgan, qiynagan yoki sevintirgan tuyg’ularga hamohang mavzularda xikoya qilish topshirig’i berilishi kerak. Masalan, ma’lum shaxs haqidagi xikoya mavzulari: **“O’rtog’imning kuchugi”, “Do’stim mening - faxrim mening”;** o’rganilgan asarlar yuzasidan: **“Mening sevimli ertagim”, “Xurishni eplolmagan kuchukchaga munosabatim”;** tabiatni kuzatishga doir **“Baxor faslidan olgan taassurotlarim», “Bizning bog’da”, “Sevimli Maktabim”;** Kasb tanlashga doir **“Kim bo’lsam ekan?” “Mening otam - quruvchi”** kabi mavzularda aytilgan hikoyalar istisnosiz ijod mahsuli sanaladi. Bunda tarbiyalanuvchilar qo’yilgan maqsad sari ongli ravishda harakat qiladilar, o’zlarining aqliy va jismoniy kuchlari, imkoniyatlarini u yoki bu shaklda ifodalashga urinadilar. Ishning mustaqil ravishda bajarilishi uchun tarbiyalanuvchining faoliyatiga hech kim aralashmasligi, uning o’zi o’z xatti- harakatlarni to’g’ri yo’naltirib, imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, oldida turgan masalani o’zi mustaqil hal qilishiga muvofiq sharoit yaratilishi lozim. Shu jarayonda bola mustaqil ravishda fikrlaydi. Chunki uning bunday faoliyati mustaqil fikrlagandagina amalga oshishi mumkin bo’ladi. Unga hech kim yo’l-yo’riq ham ko’rsatmaydi, yordam ham bermaydi. Yuqoridagi hikoya mavzularini tarbiyalanuvchilarga mustaqil ish tarzida topshirish mumkin.

10.“Uyga vazifa” Tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan ishlardan yana biri - uy vazifalarining berilishi va bajarilishidan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga uyga beriladigan topshiriqlar shaklan o’tilgan mashg’ulotlarni takrorlamasligi kerak. Aks holda bu o’quv materialini mexanik tarzda eslab qolishga olib keladi. Uy vazifalari tarbiyalanuvchining mashg’ulotdagi

faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, uning barcha topshiriqlari tarbiyalanuvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta'limning bu turidan tarbiyalanuvchilarda mashg'ulot jarayonida tarbiyalangan tafakkur faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish lozim. Uy vazifasining ma'lum reja asosida tayyorlanishi ham tarbiyalanuvchilar aqliy mustaqilligi va faolligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to'g'ri yo'lga qo'ya bilgan tarbiyalanuvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan muhokamalarga o'ziga ishongan holda qatnashadi.

11. "Guruhlarda ishlash". Mashg'ulot jarayonini tarbiyalanuvchilarni kichik-kichik guruhlarga umumlashtirib ham tashkil etish mumkin. Bu metod J. Donald tomonidan ishlab chiqilgan. Mashg'ulotdagi tarbiyalanuvchilardan kichik guruhlarni tashkil etishda:

- Tarbiyachi guruhlarni belgilab oladi;
- Guruhga rahbarlik qila oladigan tarbiyalanuvchi va guruhning barcha a'zolari haqida yaxshilab o'ylab olinadi;
- Xar bir guruhda zehnli va qobiliyatli tarbiyalanuvchilar bo'lishiga harakat qilinadi.;
- Bo'shroq o'zlashtiradigan tarbiyalanuvchilar ham guruhlarga imkon qadar teng taqsimlanadi;
- Guruhlar bir-biriga mutanosib a'zolar bilan to'ldiriladi. Guruh a'zolarining vazifalari belgilanadi;
- Guruh rahbari va a'zolarining vazifalari tushuntiriladi;
- Xar bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini kutib turishi shart;
- Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi;
- Yaxshi g'oya egalari ragbatlantiriladi.

Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval: tarbiyalanuvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish; o'z

vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini tahminlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llari haqida o'ylab ko'rish va ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

12.Klaster metodi. Uning asoschisi - D. Klaster. Bu metoddan ham guruhlar tashkil etish yo'sinida foydalanish mumkin. Unda guruh a'zolari tomonidan aytilayotgan fikrlarni uyg'unlashtirish va ular orasidagi umumiylikni topish imkoniyati paydo bo'ladi. "Klaster" metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi: tarbiyalanuvchilar ma'lum mavzu xususida nimaniki o'ylagan bo'lsalar, shuni qog'ozga tushiradilar. Masalan "Bahor" mavzusi asosida bolalarga bahor faslida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni qog'ozga tasvirlash vazifasi topshiriladi. Bu yerda fikrning sifati va mantiqining ham, xatolarning ham ahamiyati yo'q. Tarbiyalanuvchilar belgilangan vaqt tugamaguncha fikrlarini tasvirlayveradilar. Bu harakat mavzu haqida yangi bir g'oya tug'ilgunga qadar davom ettirilaveradi. Muayyan mavzu doirasida imkon qadar ko'proq fikrlar ilgari surishga harakat qilinadi. Ular yig'indisining sifati va orasidagi aloqadorlik, uyg'unlikni ko'rsatish cheklanmaydi.

13."Qarorlar shajarasi" (qarorlar qabul qilish texnologiyasi) deb nomlanadi. Uning asoschisi - D.Kolb. Bu metod ma'lum murakkab mavzuni o'zlashtirish, undagi g'oyalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilgan bir nechta xulosalar orasidan eng maqbuli va to'g'risini ajratib olishga yo'naltirilgan. Qarorlar shajarasi metodi tarbiyalanuvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini bir joyga jamlash va baholash imkonini beradi.

Har bir guruhning qarori ikkinchi guruh tomonidan baholanadi. Belgilangan vaqt tugagach har bir guruhdan bir a'zo o'z guruhining qarori haqida axborot beradi. Zarur bo'lganda qarorlar tahlil qilinadi, savollar tug'ilganda javob beriladi, aniqliklar kiritiladi.

14. “6x6“ metodi. Bu metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan hamda G.Ya.Bush tomonidan takomillashtirilgan.

Bunda guruhdagi tarbiyalanuvchilar oltita-oltitadan guruhlarga bo'linadi. Jami 36 tarbiyalanuvchi ishtirok etadi. Xar bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. Tarbiyalanuvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Vaqt yakunlangach, tarbiyachi guruh a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosasini yangi guruhga bayon qiladi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruh fikrlarini o'rganadilar, unga munosabat bildiradilar. Qisqa vaqt ichida tarbiyalanuvchilar bir-birlarining fikrlarini o'rganib, tahlil qiladilar va baholaydilar.

15. “Kubik-kubik”metodi. Ushbu metod maktabgacha ta'lim 4-mashg'ulot o'qish mashg'ulotlarida o'tilgan mavzularni mustahkamlash yuzasidan qo'llanilishi mumkin.

Quyida ushbu metod asosida tashkil etilgan mashg'ulotning texnologik xaritasi va mashg'ulot ishlanmasini keltiramiz:

Mashg'ulot mavzusi: “Rasm asosida ertak to'qish”

Mashg'ulot maqsadi: ta'limiy - bolalarga o'tilgan mavzuni mustahkamlashga doir bilim, tushunchalar berish, **tarbiyaviy** - bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi ko'nikmalarini tarkib toptirish, **rivojlantiruvchi** - bolalarning o'qish va ijodkorlik malakalarini rivojlantirish.

Mashg'ulotning jihozi: magnit doska, kubiklar, turli rasmlar tushirilgan kartochkalar, kompyuter, proyektor, televizor, DVD pleer.

Mashg'ulot turi: O'tilgan mavzuni mustahkamlash

Mashg'ulot metodi: kubik-kubik metodi

Mashg'ulotning texnologik haritasi:

Qism- lar	Bos- qichlar	Mashg'ulotning borishi	Vahti	Kutilgan natijalar
I	a	Mashg'ulotning tashkiliy qismi Salomlashish davomatni aniqlash	3	
	b	Hona va bolalarni mashg'ulotga tayyorlash	12	salomatlik tuman boylik mashg'ulotga tayyorlash
II		Mashg'ulotning asosiy qismi	20	
	1	Bu nimaning rasmi	4	kubiklardagi rasmlarni nomini aytadilar
	2	Rasmni tiklang	3	Kubiklar asosida rasmni tiklaydilar
	3	Rasmni tiklang Rasm asosida ertaklar to'qing	4	Kubiklar asosida rasmni tiklaydilar. Rasm asosida ertaklar to'qiydilar
III		Mashg'ulotning yakuniy qismi	3	Mashg'ulot haqidagi fikrlarini bildiradilar, uyga vazifani belgilaydilar.

Mashg'ulotning borishi:

Ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini o'yinlar tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda tarbiyachilar mashg'ulotlarni o'yin asosida tashkil qilishga harakat qiladilar. Bu esa mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga erishish yo'lini qisqartiradi.

O'yinning birinchi bosqichida oldindan tayyorlab qo'yilgan tomonlari 8 sm ga teng tomonli kubiklarga bola kundalik hayotida ko'rib turadigan narsalarning suratlari yelimlanadi va kubiklar aralashtirib tashlanadi. Bolalardan ma'lum turkumga kiruvchi predmetlarning masalan, mashinalarning rasmlarini yoki uy xayvonlarining rasmlarini kubiklar orasidan terib olish topshirig'i beriladi. Bunday mashqlarni bola tez uddalaydi. Bu o'yin bir necha marta takrorlansa bolaga o'yinga qiziqish uyg'onadi.

O'yinning ikkinchi bosqichida kubiklarning bir tomoniga bir predmetning olti yoki sakkizga bo'lingan rasmi yelimlanadi. Kubiklar aralashtirib tashlanadi va boladan birorta rasmni tiklab berish talab qilinadi. Bunday o'yinlarda bolada rasmlarni yodda saqlab qolish qobiliyatlari tarkib toptirila boradi.

O'yinning uchinchi bosqichida kubiklarning oltala tomoniga rasm bo'laklari yelimlanadi. Endi kubik o'yinidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadga erishish vaqti

yetib keladi. Kubiklar aralashtirib tashlanadi va bolalardan birorta rasmni tiklab berish talab qilinadi. Bolalar rasmni tiklashga erishganlaridan so'ng rasm asosida ertak to'qish vazifasi yuklanadi. Mashq bir necha marotaba takrorlanadi va bitta rasm asosida bir necha hil ertaklar yuzaga keladi. Mashg'ulotda yaxshi ishtirokchilar rag'batlantirib boriladi. Shunday qilib mashg'ulot osondan qiyinga, oddiydan marakkabga qarab rivojlantirib boriladi.

Bunday mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish, maktabgacha yoshdagi bolalarning o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlarining mustahkamlanishiga, ijodiy, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishlarida, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalariga ega bo'lishlarida, o'zaro o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarining tarkib topishida, chaqqonlik va epchillik fazilatlarining rivojlanishida muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim taraqqiyotida pedagogik innovatsiyalarni to'liq o'zlashtirish nazariyasi va amaliyoti ta'lim sohasida yangicha fikrlashga olib kelishi shubhasizdir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan texnologiyalarni qo'llashda tarbiyachidan yuqori malaka va bolalar fikrlarining to'g'ri - noto'g'riligini baholash, sharhlab borish talab qilinadi. Biror ko'rinishda baholangan faoliyat yanada jonlanish, fikrlash jarayonini faollashtirish xususiyatiga ega bo'ladi.

III BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning samaradorligi

3.1. Tajriba - sinov ishlarining tashkil etilishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga yo'naltirilgan tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy masalalar hamda amalga oshirilgan tajribalar uning natijasini aniqlashni taqozo etdi.

Ta'kidlovchi va yakuniy tajriba-sinov ishlari Qarshi shahridagi 17- son "Turnacha" nomli maktabgacha ta'lim muassasasining maktabga tayyorlov guruhlarida olib borildi. Unda jami 8 nafar tarbiyachi hamda 68 nafar maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida ham tajriba-sinov ishlari ta'kidlovchi tajriba jarayonida foydalanilgan metodlar asosida olib borildi. Dastlab, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachilariga pedagogik innovatsiyalar haqida nazariy ma'lumotlar berishdan avval ularning ushbu mavzu doirasidagi bilim va tasavvurlarini o'rganishga harakat qildik. Mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagi bolalar shaxslik xislatlarini shakllantirishga doir qanday texnologiyalardan foydalanilayotganligi bilan qiziqdik.

Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent tarbiyachilar o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. Biz so'rovnomani og'zaki tarzda amalga oshirdik, negaki, tarbiyachilar og'zaki so'rovnomada o'zlarini erkin tutishlari, bizning mavzuimiz doirasida ham fikrlarni ochiq bayon etishlari barchamizga ayon. So'rov savolnomasi mazmunidan quyidagi savollar o'rin oldi:

1. Akmeshaxs tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Mashg'ulot o'tayotgan vaqtda, shuningdek, mashg'ulotdan tashqari paytlarda ta'lim amaliyotiga kirib kelayotgan yangiliklarni tadbiq qilishga harakat qilaysizmi?

3. Sizningcha tarbiyalanuvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kimlar ko'proq mas'ul deb hisoblaysiz?
4. Fikringizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalangan ma'qul?
5. Mashg'ulotlarda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanasiz?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarda akmeshaxs xislatlarini shakllantirish yuzasidan qanday takliflarni ilgari surgan bo'lar edingiz?

Tajriba-sinov ishlarining asosiy bosqichida, yana shuningdek, "Tarbiyachining ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga akmeologik yondashuv" mavzusida amaliy trening tashkil etildi. Treningda tarbiyachi qiyofasida aks etuvchi akmesifat (xislat)larning ro'yxatini tuzish va ularni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra tartiblash (raqamlash) vazifasi topshirildi. Javoblar tahlilining ko'rsatishicha, quyidagi akmeshaxslik sifat (xislat)larning tarbiyachi qiyofasida aks etishi muhim ekanligi qayd etildi:

- vatanparvarlik va milliy g'urur, iftixor tuyg'usiga egalik;
- davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ga nisbatan chuqur hurmat bildirish;
- millat va jamiyat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish hamda ularning taqdiri uchun mas'uliyatli bo'lish;
- maishiy turmush madaniyatiga ega bo'lish;
- milliy qadriyatlarni ijtimoiy-milliy ahamiyatini chuqur anglash va ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazishga g'amxo'rlik qilish;
- halol, rostgo'y, mehr-shafqatli bo'lish;
- g'ayratli, tashkilotchi va tashabbuskor bo'lish;
- faoliyatda qat'iyatli, xushmuomala va tartibli bo'lish;
- mustaqil va o'z nuqtai nazarini erkin ifodalay olish;
- muomala madaniyatini egallay olish;
- o'z kasbini sevish;
- o'z kasbiga ijodiy yondashish;
- vaqtdan unumli foydalana bilish.

tarbiyachilar tomonidan topshiriq bajarilgach, ularga tarbiyachi qiyofasida aks etuvchi va tarbiyachilar tomonidan ikkinchi darajali deb baholanuvchi sifat (xislat)larni belgilash vazifasi berildi. Bu topshiriqni bajarish jarayonida tarbiyachilar tomonidan quyidagi sifat (xislat)lar qayd etildi: insonparvarlik, adolatlilik, iymon-e'tiqodlilik, qanoatlilik, donolik, saxiylik, mehr-oqibat, yaxshilik, nafs me'yori, do'stlik, vijdonlilik, intizomlilik, iltifotlilik, to'g'rilik, kamtarlik, hayo va iffat.

Bundan tashqari amaliy mashg'ulotlarda “Akmeologik yondashuv” nima?, “Akmeshaxs xislatlariga nimalar kiradi?”, “Diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?”, “Ekstremizm va aqidaparastlik nima? Uning oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?”, “Tarbiyachining kasbiy-ijodiy faoliyati deganda nimani tushunasiz?”, “G'oyaviy bo'shliq nima va bu bo'shliqning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar nimalardan iborat?”, “Akmeshaxs deganda kimni tushunasiz? U shaxs ongida qanday aks etishi lozim?”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy maqsadi nima? Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv imkonini beruvchi ijtimoiy shart-sharoitlar nimalardan iborat?”, “Kadrlar tayyorlash milliy modelida “shaxs” tushunchasiga qanday ta'rif berilgan va unga nisbatan qanday talab qo'yilgan?”, “Qanday tarbiyachi pedagogik faoliyatni tashkil etishga munosib bo'la oladi?”, “Ta'lim muassasalarida rahbar qanday o'rin tutadi va u qanday xislatlarga ega bo'lishi zarur?”, “Mumtoz ta'limiy-axloqiy asarlarda komil inson qiyofasi qanday tasvirlangan?”, “Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyachiga xos qanday ijobiy sifat va salbiy illatlar haqida so'z yuritilgan?” kabi savollar asosida suhbat, trening, bahs-munozara, debat, mustaqil ishlar va ishbop o'yinlar tashkil etildi. Mazkur tarbiya shakl va metodlari tarbiyachilarning kasbiy-ijodiy faoliyatga doir nazariy bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklari va faoliyatlarida qo'llash imkoniyatlarini namoyon etdi.

“Maktabgacha pedagogika” va “Pedagogika tarixi” kabi o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejasiga muvofiq o'quv materiallari o'rganilgandan so'ng yozma ishlar shaklida yakuniy nazorat tashkil etildi va natijalar tahlil qilindi.

Yakuniy nazorat uchun “Umumiy pedagogika nazariyasi va tarixi” o’quv kursi bo’yicha dasturda qayd etilgan mavzular, shuningdek, ijtimoiy-ta’limiy ahamiyatini inobatga olgan holda qo’shimcha mavzular bo’yicha savollar tuzildi. Qo’shimcha mavzular bo’yicha yakuniy nazorat uchun savollarni tuzishdan ko’zlangan maqsad – bo’lajak tarbiyachilarda kasbiy-ijodiy faoliyat ko’nikma va malakalrining shakllanganlik darajasi (chunonchi, dunyoqarashning boyligi, ijtimoiy-g’oyaviy onglilik darajasi, shuningdek, erkin fikrlay olish qobiliyati) baholashdan iborat bo’ldi.

Qo’shimcha mavzular asosida quyidagi savollar tuzildi:

1. Barkamol avlodni tarbiyalashga nisbatan O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida qanday talablar qo’yilgan?

2. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlari sifatida nimalarni qayd etgan?

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida tarbiyachi va uni tarbiyalash masalasi qanday o’rin tutadi?

4. Yoshlarning jamiyat taraqqiyotini ta’minlashdagi o’rnini tarbiyachi sifatida aynan Siz qanday baholaysiz?

5. Sizning fikringizcha, mustaqil, erkin fikrlovchi va ijodkor tarbiyachini tarbiyalash yo’llari, shakl, metod va vositalari nimalardan iborat?

6. “Fikr qaramligi” va “tafakkur qulligi” iboralari qanday ma’nomlarni anglatadi?

7. “G’oyaga qarshi faqat g’oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat” g’oyasi negizida qanday ma’no aks etadi?

8. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxsga qanday ta’rif berilgan? Ta’rifning ma’nosini izohlang.

9. “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari”, “Kuch – bilim va tafakkurda” g’oyalarning ma’nosini sharhlang.

10. Sizing fikringizcha, diniy ekstremizm va aqidaparastlikka qarshi kurashishning samarali yo'llari nimalardan iborat?

11. "Bunyodkor g'oya" tushunchasini tarbiyachi sifatida Siz qanday ifodalaysiz?

12. Vayronkor g'oyalar salbiy ta'sirlarining oldini olishning samarali yo'llari nimalardan iborat?

13. "Mafkuraviy immunitet" nima va yoshlarda uni qanday rivojlantirish mumkin?

14. Vatanparvarlik hissiga ega bo'lishda ona tiliga muhabbat qanday ahamiyat kasb etadi?

Tajriba-sinov ishlarining uchinchi bosqichi eng muhim bosqich sanalib, unda tarbiyachilarni akmeologik yondashuvga tayyorlash borasidagi nazariy bilimlari, shuningdek, tarbiyachiga xos sifat (xislat)ning o'zlarida namoyon eta olish darajalari pedagogik amaliyot vositasida aniqlandi.

Pedagogik amaliyotni tashkil etish ijodiy jarayon bo'lib, unda munozaralar, ishchan o'yinlar, tashxisli metodika, pedagogik vaziyatlarni loyihalash, suhbat va uchrashuvlar, tajriba almashish, referatlar, taqrizlar, annotatsiyalar, ma'ruzalar, o'quvchilarga tavsiyanomalar yozishni tavsiya etish muhim sanaladi. Zero, tarbiyachining kamolot darajasini baholashda uning qiyofasida aks etuvchi barcha sifat (xislat)larni yaxlit holda o'rganishni taqozo etadi.

Bu o'rinda amaliyotchi-talaba ma'naviy-axloqiy tadbirlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish va o'tkazishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Talabaning har bir tadbirni tashkil etishda ustuvor maqsadni aniqlashi, umumiy jarayonni loyihalay olishi, zarur materiallar to'plashi, tadbir ssenariysini tuzishga nisbatan yangicha yondashishi ularning muvaffaqiyatini ta'minlabgina qolmay, o'quvchilarda tarbiyachiga xos sifat (xislat)larni samarali tarbiyalashga ham yordam beradi. Tadbirlarni o'tkazish jarayonida tarbiyalanuvchilarga vazifalarni ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda to'g'ri taqsimlash, tashkiliy jihatdan tadbirning uyushtirilishida ularga yaqindan yordam bera olishi tarbiyachilarning qay darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Zero, tarbiyachining har bir

tarbiyalanuvchiga individual yondashishi hamda jamoaga umumiy taʼsir etishi koʻnikmalariga egaligi pedagogik faoliyatni toʻgʻri va samarali tashkil etilishini taʼminlovchi muhim omillar sanaladi. Tashkilotchilik, loyihalash, shuningdek, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar oʻrtasida pedagogik munosabatni samarali yoʻlga qoʻya olish qobiliyatini ifodalovchi koʻnikma hamda malakalarga ega boʻlishlari kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlanganlik boʻlajak pedagog sifatidagi kasbiy va ijtimoiy yetukliklarini baholashga yordam beradi.

Tarbiyachilarning kasbiy jihatdan yetukliklari tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda jamoani taʼlim jarayonida ijodiy faoliyat koʻrsatishga ragʻbatlantiradi. Mazkur jarayonda talabaning tarbiyalanuvchi sifatidagi tashabbuskorligi, ijodkorligi, tarbiyalanuvchilarni bilish faoliyatini boshqarishdagi mahorati, yana shuningdek, uning oʻz kasbiga boʻlgan ijobiy munosabatini ham ifodalaydi. Tarbiyachilarining boʻlajak pedagog sifatida jamoani boshqarishdagi mahorati ularning ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalana olishlari, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning oʻquv fanlari asoslarini oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqishlari va ijtimoiy faolliklarini oshirishga yordam beradi.

Darsdan tashqari ijodiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyachilarning pedagog sifatida oʻzini tutishlari, tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlik qila olishlari, tarbiyalanuvchilarning faolliklari va mustaqilliklarini taʼminlashga qaratilgan tashkilotchilik faoliyatlari, tarbiyalanuvchilarga tarbiyachi sifatida munosabatda boʻlishlari, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishlari, tarbiyada demokratik va insonparvarlik tamoyillarga yondashishlari hisobga olinadi. Pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyachilar tomonidan quyidagi muhim vazifalarni bajarishlari maʼlum boʻldi:

1. Taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri (konstruktiv) loyihalash bilan bogʻliq vazifalar.

Zero, har bir tarbiyachi oʻz faoliyatini oldindan rejalashtira olishi, oʻquv-tarbiya ishlarining mazmuni va ularni amalga oshirish yoʻllarini zamon talablari darajasida belgilay olishi, pedagogik jarayon natijalarini bashoratlay olishi,

shuningdek, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan yoki mavjud muammolarning oldini olib, ularni ijobiy hal eta olishi maqsadga muvofiq.

2. Tarbiyachilar bilan samimiy muloqotda bo'la olish borasidagi (kommunikativ) vazifalar.

Amaliyotchi-talabaning tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalar bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq aloqa o'rnata olishi, pedagogik odob qoidalariga rioya etishi, shaxslararo munosabatlarni insonparvarlik tamoyillari asosida yo'lga qo'yishi, o'z faoliyati va xulqiga tanqidiy baho munosabatda bo'lishi, shaxsiy namuna ko'rsatishi bilan obro'-e'tiborga ega bo'la olishi talab etiladi.

3. Tashkilotchilik vazifalari.

Guruh jamoasining xususiyatlarini o'rganib chiqib, ularni uyushtira olishi, turli shakldagi jamoaviy va individual faoliyatlar (o'yin, o'qish, ijtimoiy, jismoniy va sport, badiiy ijodkorlik va boshqalar)ni yo'lga qo'ya olishi, ota-onalar, jamoatchilik hamda tarbiyachilar jamoasi bilan aloqa o'rnata olishi va boshqalar.

4. Jamiyatda va jahonda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularning mohiyatini to'g'ri talqin eta olishi, shuningdek, tarbiyalanuvchilar o'rtasida ijtimoiy-g'oyaviy bilimlarni targ'ib etish borasidagi vazifalar.

5. Kasbiy-pedagogik vazifalari. Tarbiyachilarning O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalariga asosan mutaxassislik hamda zamonaviy ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan holda tarbiyalanuvchilar ongiga akmeologiya soslarini singdira olish qobiliyati, ko'nikma va malakalarga ega bo'la olishlari nihoyatda muhim. Tarbiyachilar "Yangi pedagogik texnologiyalar", psixologiya, shuningdek, xususiy fanlarni o'qitish metodikalari bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda samarali va faol qo'llash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvning o'z kasbiy faoliyatida qo'llash jarayoniga qay darajada tayyor ekanliklarini namoyon eta olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

3.2. Tajriba - sinov ishlari samaradorligi

Tarbiyachilar bilan o'tkazilgan savollar tahlili shundan dalolat beradiki, ular o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyalanuvchilarni pedagogik innovatsiyaga tayyorlash borasida yetarlicha nazariy bilim va tasavvurga ega emasliklari tufayli mashg'ulotlar jarayonida ko'proq o'quv adabiyotlariga suyanib qolishmoqda. Buning oqibatida 94% respondent tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik innovatsiyaga tayyorlash dolzarb muammo deb hisoblasalarda, 15 % respondent tarbiyachi bu o'z-o'zidan ro'y beradigan tabiiy jarayon deb qarashlari ma'lum bo'ldi. Mashg'ulotlarda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanasiz degan savolimizga deyarli aniq javob ololmadik.

Olingan natijalardan qoniqmaganligimiz tufayli shakllantiruvchi tajriba-bosqichida huddi shu tarbiyachilar o'rtasida o'rganilayotgan mavzu doirasida testlar, seminar-treninglar tashkil etildi. O'tkazilgan seminar-treninglarda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv yuzasidan nazariy ma'lumotlar berildi. Mashg'ulotlarda biz taklif etgan 15 nomdagi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Taklif etilgan texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali tarbiyalanuvchilarda akmeshaxs xislatlari bilan bir qatorda yangiliklarni tez ilg'ab olish, aniq muammo doirasida fikr yuritish, uni yechimini topish va hal qilishga doir ko'nikmalarning shakllanganligining guvohi bo'ldik.

Tahlil natijasiga ko'ra chiqarilgan umumiy xulosaga tayanib, shuni qayd etish zarurki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar nafaqat mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda, balki, tarbiyalanuvchilarni bir muammo doirasida faoliyat olib borishlari orqali ularda o'zaro hamkorlik, muammoni hal qilishga nisbatan qat'iyatlilik, chuqur mulohazalilik, iroda, do'stlik, tashabbuskorlik kabi qator shaxslik xislatlarining shakllanganligining guvohi bo'ldik.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash ijodiy jarayon bo'lib, unda munozaralar, ishchan o'yinlar, tashxisli metodika, pedagogik vaziyatlarni loyihalash, suhbat va uchrashuvlar, tajriba almashish, referatlar, taqrizlar, annotatsiyalar, ma'ruzalar, tarbiyalanuvchilarga tavsiyanomalar yozishni tavsiya etish muhim sanaladi. Zero, shaxsning kamolot darajasini baholashda uning qiyofasida aks etuvchi barcha sifat (xislat)larini yaxlit holda o'rganishni taqozo etadi.

Pedagogik innovatsiyalar nafaqat mashg'ulotlar jarayonida, balki tarbiyalanuvchilar bilan tashkil etiluvchi ma'naviy-axloqiy tadbirlarni samarali tashkil etilishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadbirlar mazmuni va shakliga ko'ra xilma-xil bo'lsa-da, ularning barchasi yagona ijtimoiy-ta'limiy maqsad – akmeshaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Ijtimoiy tarbiyaning turli yo'nalishlarida amalga oshirilgan ma'naviy-axloqiy tadbirlar o'z yo'nalishlariga ko'ra muayyan pedagogik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlarining so'nggi bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini bevosita kuzatish, ularning turli pedagogik topshiriqlarni qay darajada bajarganliklarini tahlil qilish va yakuniy natijalarni umumlashtirish asosida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi.

Matematik-statistik tahlilni amalga oshirishda qulaylik yaratish maqsadida hamda tenglik tamoyiliga muvofiq 68 nafar tarbiyalanuvchini o'z ichiga olgan 2 ta maktabga tayyorlov guruhi tanlab olindi. Natijalar nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari quyidagicha ekanligini ko'rsatdi:

Yakuniy natijalar

Guruhlar	Oquvchilar soni (nafar)	Жавоблар сони		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	34	28	4	2
Nazorat	34	14	6	14

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotchilik faoliyati samarali kechgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga tizimli, maqsadga muvofiq, texnologik yondashuv pedagogik ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur fikrning isbotini tajriba-sinov ishlari natijalari ko'rsatib turibdi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega.

Biroq bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda.

Hususan tarbiyalanuvchilarning ko'pchilik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda. Bu holning asosiy sabablarini faqat tarbiyachiga to'nkash yoki ta'lim muassasalarini moddiy-texnikaviy qashshoqligidan izlash adolatsizlik bo'lardi. Akmeologiya fani esa aynan ushbu muammoga yechim izlamoqda. Mavjud holat ko'p jihatdan mashg'ulotning maqsadi, mazmuni va usuliga aloqador bo'lib, uni yangilash hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Shaxsni tarbiyalashga akmeologik yondashuvda pedagogik innovatsiyalar yetakchilik qilmoqda. Bu o'rinda tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish, ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz.

Innovatsion ta'lim usullarini ishlab chiqish va amalda tatbiq etish bo'yicha mamlakatimiz o'quv muassasalarida birmuncha ijobiy tajriba vujudga keldi. Bunda «Internet» xizmatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo o'qitishning bu tizimini joriy etishni ma'lum bir muammolar kechiktiryapti:

- maktabgacha ta'lim muassasalari texnik bazasining nochorligi;
- mukammal dasturiy ta'minot tanqisligi;
- tayyorgarlik muammolari - mutaxassislarning texnika va texnologiyalardan foydalanish malakasi shakllanmaganligi.

Biz ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuvga asoslangan 15 nomdagi pedagogik texnologiyalarni tavsiya etdikki bu kelajakda maktabgacha yoshdagi bolalarda zamon talablariga to'la javob beradigan akmeshaxslarni tarbiyalashga hizmat qiladi:

1. **“Aqliy hujum”**
2. **“Faoliyat o'yini”**
3. **“Aql peshlash”**
4. **“Suhbat metodi”**
5. **“Tadqiqot metodi”.**
6. **“Ijodkorlik metodi”.**
7. **“Izlab top”.**
8. **“Nima bo'lardi agar” metodi.**
9. **“Hikoya metodi”.**
10. **“Uyga vazifa”**
11. **“Guruhlarda ishlash”.**
12. **“Klaster” metodi.**
13. **“Qarorlar shajarasi”**
- 14 **“6x6x6“ metodi,**
15. **“Kubik-kubik”metodi.**

Tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga tarbiyachining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida tarbiyachi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

Tarbiyachi faoliyatida o'z-o'zini faollashtinsh, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarbiyachi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Maktabga tayyorlov guruhida pedagogik texnologiyalarni qo'llash tarbiyalanuvchilar bilimlarining mustahkamlanishiga, ijodiy, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishlarida, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda

og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalariga ega bo'lishlarida, o'zaro o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarining tarkib topishida, chaqqonlik va epchillik fazilatlarining rivojlanishida muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga akmeologik yondashuv texnologiyasiga doir quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

TAVSIYALAR:

1. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini eskirgan mafkuraviy qarashlardan halos etib pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.
2. Pedagogik texnologiyalarni hamkorlik pedagogikasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tashkil etish.
3. Pedagogik texnologiyalardan milliy-ma'naviy merosimiz materiallarida ilgari surilgan g'oyalar bilan moslab foydalanish.
4. Maktabgacha ta'limning metodik ta'minotini pedagogik innovatsiyalar asosida tarbiyalashga imkon beruvchi o'quv manbalari majmuasi (o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar) hamda o'quv materiallari bilan boyitish.
5. Ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar dan foydalanishga jiddiy e'tibor berish.
6. Ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoni o'rtasida o'zaro izchillik va uzviylikni ta'minlash orqali bolalarda erkinlik, mustaqillik, ijtimoiy faollik sifatlarini tarbiyalash maqsadida tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish.
7. Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari tadbirlarni pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish orqali barkamol shaxsni tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ravishda monitoring tashkil etish va uning natijalarini tahlil etib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O'zbekiston, 1992. – 48 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Halq so‘zi” gazetasi, 22 dekabr 2017 yil.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H. Saidov, R.Ahliddinov. – T.: Sharq NMAK. 1999. – 148 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008, 171 b
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Bola ma‘naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma‘rifat-Madadkor”, 2000. – 7-19-b.
7. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi //Bola ma‘naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma‘rifat-Madadkor”, 2000. – 20-55-b.
8. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
9. Abduvahobov U. Shaxs (Kamil inson haqida). – T.: Vatan, 1996. – 20 b.
10. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasini. – T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
11. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Tarbiyachi, 1992. – 160 b.
12. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: Tarbiyachi, 1991. – 67b.
12. Azizxo‘jaeva N.N. Tarbiyachi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.

13. A'zamova M. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar orasida hamkorlik muhitini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari. "Xalq ta'limi" jurnali, T.: 2012. 2- son, 132-135b.
14. Asadov B "Yoshlar va qadriyatlar". T. 2000 y. 27b
15. Akbarov X., va boshqalar „Ma'naviy va ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid me'yoriy hujjatlar to'plami". T. A.Navoiy nomidagi Ozb. Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 y., 87b.
16. Barotov Sh. Bola shaxsini o'rganish usullari /MTM tarbiyachilari va pedagogika institutlari bo'lajak tarbiyachisi uchun qo'llanma. – T.: Tarbiyachi, 1995. – 56 b.
17. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent.: 2008 yil.-167b.
18. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar) / Nashrga tayyorlovchi M.M. Xayrullaev. – T.: Xalq merosi, 1-k. 1995. – 104 b.
19. To'xtaxodjayeva M.X va boshqalar „Pedagogika“ T. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2010 y., 356b.
20. Ziyodova T. Ta'limda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi hamkorligi omili. "Xalq ta'limi" jurnali, T.: 2012. 4- son, 9-12 b.
21. Zunnunov A. Pedagogika tarixi /Oliy o'quv yurtlari uchun mashg'ulotlik. – T.: Fan, 2004. – 335 b.
22. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma).– T.: Xalq merosi, 1- jild. 1993. – 3-182-b.
23. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T.: 2018.-62 b.
24. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari /Qo'llanma. – T.: Tarbiyachi, 2004. – 104 b.
25. Kaykovus, Qobusnoma /Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. – T.: Tarbiyachi, 1986. – 168 b.
26. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, K.1. 1996. – 272 b.

27. Kenjaeva.D. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari.-T: Fan, 2010.-67b
- 28.Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A., Quronov M. va boshq. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida). – T.: Akademiya, 2002.– 280 b.
29. Mavlonova R. To‘raeva O, Holiqberdiev K. Pedagogika. - T.: Tarbiyachi, 2002. – 384 b.
- 30.“Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari” T.: 2017
- 31.“Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini boshqarish” A. Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutining metodik tavsiyasi. T. 2009 y.
32. Xolmatova M. “Oilaviy munosabatlar madaniyati”. T. 2000 y, 344b
33. Sa’dullayev B. Tarbiyalanuvchilarni hamkorlikka undaydigan o‘yinlar, ularning turlari va pedagogik – psixologik hususiyatlari. “Xalq ta’limi” jurnali, T.: 2012. 6- son, 35-38 b.
34. Yusupov E. Inson kamolotining ma‘naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 184 b.
35. Yo‘ldoshev H.Q. „Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, MTM konsepsiyasi”. T. 2004 y.
36. www.edu.uz
37. www.ziyonet.uz

ILOVLAR

1- ilova**Bolalarning intellektual rivojlanishi.**

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda bolalarning intellektual rivojlanishi muhim sanaladi.

Maktabga tayyorlov guruhi maktabga tayyorlov guruhi bolalarining intellectual rivojlanganlik darajasi quyidagilar bilan belgilanadi:

- narsalarni 10 tagacha sanay olish;
- sanoq va tartib sonlardan to'g'ri foydalanish;
- 10 tagacha bo'lgan sonlarni yonma-yon turganlarini (ko'rgazma asosida) taqqoslay olish;
- teng bo'lmagan 2 guruh narsalar sonini ikki usul bilan tenglashtira olish (1ta narsa qo'shish yoki ayirish usuli bilan);
- 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni nomi va farqi;
- turli miqdordagi 10 tagacha bo'lgan narsalarni eni, bo'yi, balandligi, qalinligi, o'lchami va ular orasidagi munosabatlarni xisobga olgan xolda ortib borishi yoki kamayib borishi tartibida joylashtirib taqqoslash;
- narsalar shaklini doiraviy, uchrubchak, to'g'ri to'rtburchakli, kvadrat, to'rtburchakli, oval ko'rinishdagilarini farqlash;
- qog'oz varag'ida yo'nalishlarini farqlash;
- narsalarning o'ziga yoki boshqa narsalarga nisbatan joylashish vaziyati, yo'nalishini so'z bilan ifodalash;
- hafta kunlari ketma-ketligi, sutka qismlari nomlari kabilar.

2- ilova

Mehnatga ijobiy munosabatning tarkib topisi

Mehnatga ijobiy munosabatning tarkib toptirish maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bolib, zamonaviy sharoitda ushbu masalani texnologik yondashuv asosida hal qilish talab qilinadi.

5-7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo'r kizikishi biror mehnat jarayonin kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatlari kichik maktab yoshidagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan, e'tiborlari hamda maqsadga qaratilgandir. Bolalarda mehnat malakalari mehnat kilish odatini shakllantirish har bir ishni ohiriga yetkazish ko'nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonni texnologik yondashuv asosida to'g'ri tashkil etib quyidagi qoidalarga rioya qilinishini talab qiladi:

Katta guruhlarga o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish mehnati ho'jalik turmush mehnati tabiatdagi mehnat, shuningdek qo'l mehnatini tashkil etish.

Kun tartibiga ko'ra «Bolalar bog'chasi ta'lim tarbiya dasturi» asosida mehnat uchun nazarda tutilgan vaqtdan to'lik foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish.

Mehnatning har xil turlari tashkil etilar ekan bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish.

Bolalar mehnatiga rahbarlik metod va usullarini ta'lim tarbiya vazifalariga muvofik tanlash.

Xilma xil mexnat turlarini tashkil etishda ularning bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona biriktirish orqaligina amalga oshirish.

3- ilova

Ekologik madaniyatni tarkib toptirishga texnologik yondashuv

Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan extiyotkorlik, g'amxo'rlik munosabatlari shakllantiriladi.

Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma'suliyatni his etib yondashishini tarbiyalaydi. Bolalar o'simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar uning zarurligiga ishonch hosil kiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan ma'suliyatini tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarini egallab olgan bo'lishlari o'z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim.

Tabiatdagi mehnat maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Mehnat jarayonida bolalar o'simliklar xolati, ularni yorug'likka, namlikka, issiqlikka yahshi tuproqqa bo'lgan extiyojlarini qondirilishiga bog'lik ekanligini anglab oladilar.

Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o'stirilishining usullaridan biridir. Tabiatdagi mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashkari ta'limiy vazifalar ham hal qilinadi. Tabiat burchagida bo'ladigan navbatchilik ertalab baliqchalarni boqadilar, gullarga suv quyadilar, yerlarni yumshatadilar, qushlar qafaslarini tozalashda yordam beradilar. Vaqti vaqtida ko'chat utkazishda ham yordam beradilar.

Tarbiyachi va bolalar navbatchilar ishini nazorat qiladilar, xamda uni baholaydilar.

4-ilova

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida bolaning shaxsiy – psixologik va aqliy
rivojlanganligini tashxislash**

Tashxislash suhbatlari savollari

- 1) Familyangni, ismingni, otangni ismini ayt.
- 2) Ota – onangning familiyasi, ismi, otasining ismini ayt.
- 3) Sen qizmi yoki o'gil ? Katta bo'lsang kim bo'lasan: xolami, tog'ami?
- 4) Sening akang (opang) bormi, kim katta ?
- 5) Yoshing nechada ? Bir yildan keyin nechaga kirasan, ikki yildan keyin- chi?
- 6) Xozir ertalabmi yoki kechqurun(kunduzimi yoki ertalabmi)?
- 7) Sen qachon nonushta qilasan-kechqurunmi, ertalabmi? Tushlikni ertalab qilasanmi, kunduzimi? Tushlik oldin bo'ladimi yoki kechki ovqat?
- 8) Sen qaerda yashaysan? Uy manzilingni ayt(Qanday mamlakatda yashaysan? Prezident kim ? Vatanimizning bayrogini, gerbini ko'rsat? va boshq.)
- 9) Otang (onang) kim bo'lib ishlaydi?
Rasm chizishni yaxshi ko'rasanmi? Bu qalamning (lentaning, ro'molning rangi qanaqa?
Xozir yilning qaysi fasli- qishmi, bahormi, yozmi, kuzmi? Nega sen shunday deb hisoblaysan?
- 10) Nega qor qishda bo'ladi, yozda yemas?
- 11) Xaydovchi (shifokor, tarbiyachi) nima ish qiladi?
- 12) Maktabda qo'ng'iroq, parta nima uchun kerak?
- 13) O'zingning o'ng ko'zingni, chap qulog'ingni (o'ng yoki chap qo'l bilan) ko'rsat. Ko'z va quloq nima uchun kerak?
- 14) Qanday xayvonlarni bilasan?
- 15) Sen qanday qushlarni bilasan?
- 16) Nima katta: sigirmi, echkimi? Qushmi yoki asalari? Nimani panjasi katta: kuchuknikimi, xo'roznikimi?
- 17) Nima katta: 8mi, 5mi, 7mi, 3 ? 3dan 6 gacha, 9 dan 2 gacha sana.

- 18) Bilmasdan bironing narsasini sindirib qo'ysang nima qilish kerak?
- 19) Uy telefonlaringning, onangning, otangning, buvingning ish joylaridagi telefonlarning raqamini eslab ko'r...
- 20) Agar ota-onang (kechqurun va dam olish kunlari) uyda yo'q bo'lsa – qaerda bo'lishi mumkin?
- 21) Sen (katta do'konda, bozorda, xayvonot bog'ida, seni majburan olib ketganda, notanish ko'chada ko'p kishilik avtobusda, metroda va boshq.) adashib qolsang, bunday xolatlarda nima qilgan bo'larding?